1.Mavzuga kirish (15daqqa)	1.1.Fanning nomini aytadi. Ekranga chiqarilgan mavzular ro'yxati bilan tanishtiradi va ularning mazmunini qisqacha yoritadi.	Tinglaydilar
	1.2.Ma'ruza mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini e'lon qiladi.	Tinglaydilar
	1.3.Klaster asosida o'tiladigan mavzuning mazmuni va mohiyatini qisqacha yoritadi.	
	2.1.Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol-javob	Savolga javob

2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	usulini qoʻllaydi: 2.2.Javoblarni toʻldiradi, umumlashtiradi va bugungi oʻquv mashgʻulotida ushbu savollarga kengroq javob olishlarin aytadi. 2.3.Ekrandagi slaydlar toʻgʻrisida toʻliq maʼlumotlar beradi. Talabalar diqqatini mavzuning asosiy jihatlariga qaratadi, ularning dolzarb va ahamiyatini asoslaydi. 2.4.Moyli xom ashyolarning noanaʼnaviy turlari toʻgʻrisida fikr bildirishlarini soʻraydi. Vazifani barcha talabalar yakka tartibda bajarishlarini aytadi.Talabalar faoliyatini kuzatadi, ularni yoʻnaltiradi, zarur maslahatlar beradi. 2.5.Bir necha talabaning ish natijasini tekshiradi, talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi. Zarur boʻlsa qoʻshimchalar kiritadi va ushbu savol boʻyicha toʻliq maʼlumot berishini aytadi. 2.6.Rejaga doir slaydlarni ekranga chiqaradi va xar bittasini toʻliq yoritadi. 2.7.Mavzu boʻyicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi.	beradilar, fikrlarini bildiradilar Tinglaydilar, zarur maʼlumotlarni yozib oladilar Vazifani yakka tartibda bajaradilar Ish natijasini taqdim qiladilar Tinglaydilar, zarur maʼlumotlarni yozib oladilar
3.Yakunlovchi bosqich (10 daqiqa)	3.1.Mavzu boʻyicha yakuniy xulosalar qiladi. Mazkur mavzu boʻyicha egallangan bilimlarning dolzarbligi va ahamiyati alohida qayd etadi, hamda kelajakda ushbu bilimlardan qaerlarda foydalanishi mumkinligi haqida maʼlumot berdi. 3.2.Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi: keyingi mavzu asosida B/B/B jadvalini toʻldirib kelish. B/B/B jadvalini toʻldirish qoidasini tushunturadi. Ikkinchi mavzu boʻyicha keyingi oʻquv mashgʻulotiga tayyorlanib kelishni taʼkidlaydi.	Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar

10-mavzu	Avtomatlashtirilgan loyixalash tizimining biotexnologik ishlab chiqarish va fermentyorlarni optimal loyihalash vazifalari
-----------------	--

10.1.Maʼruzada taʼlim texnologiyasi

<i>Mashgʻulot vaqti - 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 60 tadan ortiq emas</i>
<i>Mashgʻulot shakli</i>	Kirish-axborotli maʼruza
<i>Maʼruza rejasi</i> 1. Loyixalash bosqichlari va uning asosiy vazifalar. 2.. Fermentyorlarning algoritmik hisobi va ularni optimal loyihalash	Reyting tizimi haqida maʼlumot. Avtomatlashtirilgan loyixalash tizimining biotexnologik ishlab chiqarish va fermentyorlarni optimal loyihalash vazifalari haqida tushunchalar beriladi.
<i>Oʻquv mashgʻulotining maqsadi:</i> Avtomatlashtirilgan loyixalash tizimining biotexnologik ishlab chiqarish va fermentyorlarni optimal loyihalash vazifalari toʻgʻrisida bilimlarni shakllantirish..	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> · Reyting tizimi haqida maʼlumot berish 1.Loyixalash bosqichlari va uning asosiy vazifalar. 2.. Fermentyorlarning algoritmik hisobi va ularni optimal loyihalash	<i>Oʻquv faoliyati natijalari:</i> 1Loyixalash bosqichlari va uning asosiy vazifalar.haqida gapirib beradilar 2.. Fermentyorlarning algoritmik hisobi va ularni optimal loyihalash haqida tushintirib beradilar.

<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ko'rgazmali ma'ruza, tushuntirish, klaster
<i>Ta'lim berish shakillari</i>	Ommaviy
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, kompyuter texnologiyalari, slaydlar
<i>Ta'lim berish sharoitlari</i>	Texnika vositalaridan foydalanishga mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Ozaki nazorat, savol-javob, test

10.2. Avtomatlashtirilgan loyixalash tizimining biotexnologik ishlab chiqarish va fermentyorlarni optimal loyihalash vazifalari
Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. Fanning nomini aytadi. Ekranga chiqarilgan mavzular ro'yxati bilan tanishtiradi va ularning mazmunini qisqacha yoritadi. 1.2. Birinchi ma'ruza mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini e'lon qiladi. 1.3. Klaster asosida o'tiladigan mavzuning mazmuni va mohiyatini qisqacha yoritadi.	Tinglaydilar Tinglaydilar
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida savol-javob usulini qo'llaydi: 2.2. Javoblarni to'ldiradi, umumlashtiradi va bugungi o'quv mashg'ulotida ushbu savollarga kengroq javob olishlarini aytadi. 2.3. Ekrandagi slaydlar to'g'risida to'liq ma'lumotlar beradi. Talabalar diqqatini mavzuning asosiy jihatlariga qaratadi, ularning dolzarb va ahamiyatini asoslaydi. 2.4. Moyli xom ashyolarning noana'naviy turlari to'g'risida fikr bildirishlarini so'raydi. Vazifani barcha talabalar yakka tartibda bajarishlarini aytadi. Talabalar faoliyatini kuzatadi, ularni yo'naltiradi, zarur maslahatlar beradi. 2.5. Bir necha talabaning ish natijasini tekshiradi, talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi. Zarur bo'lsa qo'shimchalar kiritadi va ushbu savol bo'yicha to'liq ma'lumot berishini aytadi. 2.6. Rejaga doir slaydlarni ekranga chiqaradi va xar bittasini to'liq yoritadi. 2.7. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi.	Savolga javob beradilar, fikrlarini bildiradilar Tinglaydilar, zarur ma'lumotlarni yozib oladilar Vazifani yakka tartibda bajaradilar Ish natijasini taqdim qiladilar Tinglaydilar, zarur ma'lumotlarni yozib oladilar
3. Yakunlovchi bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalar qiladi. Mazkur mavzu bo'yicha egallangan bilimlarning dolzarbligi va ahamiyati alohida qayd etadi, hamda kelajakda ushbu bilimlardan qayerlarda foydalanishi mumkinligi haqida ma'lumot berdi. 3.2. Mustaqil ishlash uchun vazifa beradi: keyingi mavzu asosida B/B/B jadvalini to'ldirib kelish. B/B/B jadvalini to'ldirish qoidasini tushuntiradi. Ikkinchi mavzu bo'yicha keyingi o'quv mashg'ulotiga tayyorlanib kelishni ta'kidlaydi.	Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar

6. O'QUV MATERIALLARI
(MA'RUZA MATNI,O'QUV QO'LLANMALAR)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT KIMYO - TEXNOLOGIYA INSTITUTI

**«OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TEXNOLOGIYASI»
FAKULTETI**

«BIOTEXNOLOGIYA» KAFEDRASI

5A320501- biotexnologiya (mahsulot turlari bo'yicha)
mutaxassisligi bo'yicha o'qiyotgan magistrantlar uchun
«Bioreaktor va apparatlar»
FANIDAN MA'RUZA MATNLARI

Toshkent – 2013

1-MA'RUZA

KIRISH.

Fanning rivojlanish tarixi va istiqbollari

Mikroorganizmlarning hayot faoliyatiga yo'naltirilgan jarayonlar biokimyoviy jarayonlar deyiladi. Bu jarayonlar ma'lum tezlikka ega bo'lib, ular mikroorganizmlar biomassasining yoki muhitda to'plangan metabolit mahsulotlar massasining o'sishi bilan xarakterlanadi.

Bioreaktor va apparatlar fanini o'rganishdan maqsad, ushbu jarayonning kimyoviy texnologiya jarayonlari bilan o'xshashligi va o'ziga xos tomonlarini qo'llaniladigan uskunalarning konstruktiv xususiyatlari bo'yicha ilmiy, nazariy va amaliy bilim berish, ulardan yuqori sifatli, kasbini chuqur egallagan, malakali mutaxassisligini tayyorlashdan iborat.

Fanning vazifasi-magistrlarni asosiy jarayonlarning umumiy qonuniyatlari va kinetikasi, ushbu jarayonlarni xisoblash usullari va qo'llaniladigan uskunar bilan tanishtirishdan iborat.

Bioreakterlar, ya'ni fementyorlar biotexnologik ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi sterillik va ekologik holatni nazarda tutib bioob'ektlarning o'sish va biosinteziga optimal sharoit yaratishdir.

Bioreaktorning asosiy funksiyasi va tizimlari; bioreaktorni sterillash va aseptikani ta'minlash; bioreaktordagi gidrodinamik tizimlar; massaalmashinishlar xarakteristikasi va uni tadqiq etish usullari; biosintez jarayonidagi massa va issiqlik uzatilish tizimlari; bioreaktorlarning asosiy tiplari; ularning klassifikatsiyasi; tuzilishi va xarakteristikasi; laboratoriya uskunasi; fermentatsion uskunalarning asosiy tiplari va ularni klassifikatsiyalashning asosiy prinsiplari; asosiy ishlab chiqarish fermentyorlari; ko'p bosqichli murakkab biotexnologik ishlab chiqarish tizimlari; biotexnologik ishlab chiqarish tizimining samaradorlik mezonlari va asosiy prinsiplari hamda uni optimallashtirish; fermentyorlardagi biosintez jarayonlarini optimallashtirish va hisoblash; ishlab chiqarish fermentyorlarini tanlash va ularning texnik – iqtisodiy tavsifi; mo'tadil biotexnologik ishlab chiqarishni va fermentyorlarni loyihalashda avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi hamda uning vazifalari.

Biotexnologik ishlab chiqarish texnologiyasining rejimlari va jarayonlarini loyihalash usullari va tizimlari; asosiy texnologik uskunar va ularning ishlash prinsiplari; eng yaxshi iqtisodiy va texnik xarakterga ega bo'lgan mahalliy va xorijiy texnologiyalar va maxsulotlari; ishlab chiqarishda qo'llaniladigan asosiy xoma-ashyolar; qo'shimcha materiallar va tayyor maxsulotlarga qo'yilgan texnik talablar; ishlab chiqarish jarayonlarida energiya; yoqilg'i-moylash; xom-ashyo va qo'shimcha materiallarning me'yoriy sarflari.

Loyihalash ishlarini tashkillashtirish; texnologik loyihalashning asosiy vazifalari; texnik iqtisodiy asosnoma tuzish; texnik loyiha; asosiy texnologik sxemalar bloki va ularning o'rnatilishi; biotexnologik ishlab chiqarishning namunaviy jarayonlari va uskunalarni tadqiq etish usullari; texnologik uskunar va maxsulotlarning sterilizatsiyasi; sterilizatsiya rejimlari; biotexnologik jarayonlarning energetik va materiallar balansini hisoblash; fermentatsiya bosqichida issiqlik va massaalmashinish jarayonlari va ularni hisoblash usullari; asosiy fermentatsion uskunar; ularni tanlash va hisoblash usullari; eritish; kristallizatsiya; adsorbsiya; absorbsiya; ion almashinish; ekstraksiya; flotatsiya; flokulyasiya; cho'ktirish; filtratsiya; membranali ajratish; separatsiya va sentrifugalash; vakuum-bug'latish; quritish kabi ko'p komponentli tizimlar ajralishida uskunalarni joylashtirish va ularni hisoblash usullari; xom-ashyoni qabul qilish; saqlash; me'yoriy sarflash va transportirovka qilish bosqichlarini uskunar bilan jihozlash usullari va tartiblari; texnologik sxemalar tahlili va sintezini; biotexnologik jarayonlar va jihozlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari; ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy mezonlarni optimallashtirish; avtomatlashtirilgan mikrobiologik ishlab chiqarishni nazorat qilish moslamalari va usullari.

- loyihalash ishlarini tashkillashtirish; texnologik loyihalashning asosiy vazifalari; texnik iqtisodiy asosnoma tuzish; texnik loyiha; asosiy texnologik sxemalar bloki va ularning o'rnatilishi; biotexnologik ishlab chiqarishning namunaviy jarayonlari va uskunalarni tadqiq etish usullari; texnologik uskunar va maxsulotlarning sterilizatsiyasi; sterilizatsiya rejimlarini; biotexnologik jarayonlarning energetik va materiallar balansini hisoblashni; fermentatsiya bosqichida issiqlik va

massaalmashinish jarayonlari va ularni hisoblash usullarini; asosiy fermentatsion uskunalari; ularni tanlash va hisoblash usullari; eritish; kristallizatsiya; adsorbsiya; absorbsiya; ion almashinish; ekstraksiya; flotatsiya; flokulyasiya; cho'ktirish; filtratsiya; membranali ajratish; separatsiya va sentrifugalash; vakuum-bug'latish; quritish kabi ko'p komponentli tizimlar ajralishida uskunalarni joylashtirish va ularni hisoblash usullari; xom-ashyoni qabul qilish; saqlash; me'yoriy sarflash va transportirovka qilish bosqichlarini uskunalari bilan jihozlash usullari va tartiblarini; texnologik sxemalar tahlili va sintezini; biotexnologik jarayonlar va jihozlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslarini; ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy mezonlarni optimallashtirishni; avtomatlashtirilgan mikrobiologik ishlab chiqarishni nazorat qilish moslamalari va usullari bo'yicha tasavvurga ega bo'lamiz.

Hozirgi paytda biokimyoviy ishlab chiqarishda ishlatilayotgan reaktorlar kurilmasining xar xilini kurib shuni xulosa chikarish mumkin, chunki xamma reaktorlarda aniq fizik jarayonlar ketadi (gidrodinamik, issiqlik va massa almashtirish) va ular yordamida moddalarni biokimyoviy o'zgarishda (biokimyoviy reaksiya) ularni olib borish uchun optimal sharoit yaratiladi. Ana shunday jarayonlarni olib borish uchun biokimyoviy reaktorlar qonstruksion elementlar turlari bilan ta'minlanib, apparatlarda keng qo'llanadigan fizik jarayonlarni olib borish uchun aralashtirgich, kontakt qurilmasi, issiqlik almashtirish va boshqalar. SHuning uchun xam biokimyoviy reaktorlari ko'rinishdan kompleks apparatlariga o'xshab ma'lum konstruktiv elementlardan tashkil topgan bo'lib, ularning ko'plari texnologik operatsiyalarni o'tkazish uchun ishlatilib ishlab chiqarilayotgan biokimyoviy o'zgarishlarsiz olib boriladi. Bunday konstruktiv soni va reaktor turlari etarli katta bo'lishi mumkin, bu esa biokimyoviy reaksiyalarning kechishini murakkabligini va xilma-xilligi bilan tushuntirish mumkin. Ammo xamma biokimyoviy reaktorlar uchun umumiy prinsiplari bor va ular asosida konstruktiv apparatlari uchun umumiy prinsiplari bor va ular asosida konstruksiya apparatlariga aloqani borligi topiladi. Reaksion apparatlarni kriteriya orqali klatsifikatsiyalash davriy yoki uzluksiz jarayonlarga hisoblanib ularning tozaligi gidrodinamik tartib issiqlik effekti va reaksiya biosintezi reaksiyasiga kislorod kerakligi fizik xossalari moddalarining bir-biri bilan aloqasidir.

2-MA'RUZA

BIOREAKTORLARNING ASOSIY FUNKSIYA VA TIZIMLARI.

REJA:

1. Bioreaktorlarning asosiy funksiyalari.
2. Fermentatsion muhit aeratsiyasi.
3. Fermentatsion muhitni aralashtirish.

Hozirgi kunda biokimyoviy ishlab chiqarishda qo'llaniladigan turli xildagi reaktor uskunalarni ko'rib chiqamiz, bundan biz barcha reaktorlarda fizik jarayonlar (gidrodinamik, issiqlik almashinuv) sodir bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida biokimyoviy reaktorlar o'zida kompleks apparatlarni mujassamlashtiradi. Ular texnologik operatsiyalarda ishtirok etadigan va keng qo'llaniladigan konstruktiv elementlardan tashkil topgan bo'ladi. Biokimyoviy aylanishlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan qurilmalar bioreaktorlar deyiladi.


Biokimyoviy reaktorlar uchun umumiy prinsiplar mavjud, ular asosida apparat konstruksiyalari va biokimyoviy jarayonlar sodir bo'lishining asosiy qonun-qoidalari orasidagi bog'liqlikni topishimiz mumkin. Reaksion apparatlar davriy va uzluksiz jarayonga asoslangan, sterillik, gidrodinamik rejim, issiqlik effekti va biosintez jarayon reaksiyalariga kerak bo'lgan kislorod miqdori shuningdek, o'zaro ta'sir etuvchi moddalarning fizik hususiyati (agregat, fazali tuzilishi)ga ega bo'lgan kriteriyalariga asoslangan holda reaksiyon apparatlarni sinflashimiz mumkin.

Biokimyoviy reaktorlarning sinflanishi

Jahon uyushmasi prinsipi bo'yicha biokimyoviy reaktorlar 3 guruxga bo'linadi:


1. Davriy ishlaydigan reaktorlar
2. Uzlaksiz ishlaydigan reaktorlar
3. Yarim uzluksiz ishlaydigan reaktorlar

Davriy ishlaydigan reaktorlarda barcha alohida bo'limlaridagi jarayonlar turli vaqtda sodir bo'ladi. Unda ta'sir etuvchi moddalar konsentratsiyasi reaksiya hajmning barcha nuqtalarida bir xildir. Reaktorda davriy xarakatlanayotgan texnologik jarayonlar parametrlari vaqt bo'yicha o'zgarib turadi. Davriy ishlaydigan reaktorlarda ishlab chiqarish samaradorligi past va ularni avtomatik rostlash va nazorat qilish mushkuldir.




1-rasm. Davriy ishlaydigan reaktor

Uzlaksiz ishlaydigan reaktorlarda barcha alohida bo'limlaridagi jarayonlar moddalarining biokimyoviy o'zgarishi (ta'sir etuvchi moddalarning uzatilishi, biokimyoviy reaksiyalar, oxirgi mahsulotning chiqishi) bir vaqtda parallel amalga oshadi. Reaksiya hajmdagi ta'sir etuvchi moddalarning konsentratsiya o'zgarishi har bir vaqt momentida apparat hajmidagi turli nuqtalarining har biri uchun doimiydir. Bunday apparatlarda jarayonning texnologik parametrlari vaqt bo'yicha doimiydir. Lekin uzluksiz ishlaydigan reaktorlardagi reaksiya davomiyligini o'lchash mumkin emas. Uzlaksiz ishlaydigan apparatlarda reaksiya vaqti reagent kelish vaqti bilan mos kelmaydi, chunki moddaning elementar zarrachalari reaksiya hajm ichida turli vaqt mobaynida sodir bo'ladi va zarrachalarning umumiy kelish vaqti alohida-alohida zarrachalarning taqsimlanish vaqti xarakteriga bog'liq bo'ladi. Umumiy holda reaksiya vaqti aralashtirish intensivligi, apparatdagi oqimlar strukturasi va har bir gidrodinamik reaktorlar uchun individualdir. Uzlaksiz ishlaydigan reaktorlar uchun yuqori tezkor elektron hisoblash mashinalarini qo'llash mumkin.



2-rasm. Uzlüksiz ishlaydigan reaktor

Yarim uzluksiz (yarim davriy) ishlaydigan reaktorlar joriy qilinmagan sharoitda ishlaydi, chunki reagentlarning biri apparatga uzluksiz boshqasi esa davriy kiradi. Ba'zi hollarda reagent davriy kirib, reaksiya mahsuloti uzluksiz ortiladi. YArim davriy ishlaydigan reaktorlardan reagentning berilish tezligini o'zgarishi jarayon tezligini boshqarishga imkon bersa shundagina foydalaniladi.



3-rasm. Yarim uzluksiz va yarim davriy ishlaydigan reaktor


Gidrodinamik rejim bo'yicha (oqimlar strukturasi) reaktorlar uch guruhga bo'linadi:

Ideal (to'liq) aralashtirish reaktorlarida – reagent oqimi bir zumda va bir tekis butun reaksiyon hajm bo'yicha aralashtiradi. Bu shuni anglatadiki, apparatdagi reaksiyon aralashma tarkibi va harorati butun apparat hajmida bir xil deb hisoblash mumkin. Bunday reaktorlarga suyuqlikni mexanik aralashtiruvchi kichik hajmli apparatlar misol bo'ladi. Bunda aralashtirgichning aylanish chastotasi $4s^{-1}$ dan kam bo'lmasligi va gomogenizatsiyalash vaqti 8 daqiqadan oshmasligi kerak.

Ideal (to'liq) siqib chiqarish reaktorlari - bunday apparatlarda reagent harakati porshensimon xarakterga ega. Unda apparatdan o'tayotgan hajm keyingisi bilan aralashib ketmaydi, chunki ular o'zaro siqiladi. Bunday apparatda oqim yo'nalishi bo'yicha oqim tezligining taqsimlanishi mavjud. Natijada, apparat markazi va uning devorlaridagi reaksiyon aralashma tarkibi va xarorati xar xil bo'ladi. Hattokki, apparatga kirayotgan va chiqayotgan harorat ham turlicha. Bunday apparatlarga qobiq trubali, ya'ni kolonnali reaktorlar misol bo'ladi. Ularning balandlik va diametri $20(N/D \geq 20)$ dan kam bo'lmaydi. Biroq, katta reaksiyon hajda, qoida bo'yicha, ideal siqilish rejimi qayta aralashtirish effekti hisobiga o'zgaradi.

Oraliq gidrodinamik rejimda ishlaydigan reaktorlar. Amaliyotda bunday tipdagi apparatlardan keng foydalaniladi. Ko'pgina hollarda reaksiyon hajmdagi ideal aralashtirish rejimi yo'qligi kuzatiladi, masalan, katta hajmdagi apparatlarda aralashtirgichning aylanishlar chastotasining etarli bo'lmasligi, apparat ichidagi issiqlik almashtirgichlarning uzluksiz ishlaydigan apparatlarga reagentlar kelib tushishining tezligi va xokazo. Bunday hollarda turg'un zonalar apparatda baypas oqimlar apparat orqali aralashmagan sakrovchi (proskok) oqimlar paydo bo'ladi. Konstruktsiya bo'yicha biokimyoviy reaktorlar quyidagi turlarga bo'linadi:


1. Idish tipidagi reaktorlar
2. Kolonna tipidagi reaktorlar
3. Truba tipidagi reaktorlar
4. Plyonka tipidagi reaktorlar
5. Membrana tipidagi reaktorlar
6. Havo bilan siqilgan qatlamli reaktorlar



Rasm 13. Biokimyoviy reaktorlarning asosiy konstruktiv turlari: a – xajmli reaktor turi, b – kolonka turidagi reaktor, v – trubkakali turidagi reaktor, g – plyonka turidagi reaktor, d – membrana turidagi reaktor, e – psevdo suyultirilgan katlamli reaktor

Membranali reaktorlar

Membranali reaktorlarning konsepsiyasi quyidagilarda namoyon bo'ladi: ko'pgina reaksiyalar o'tkazildi mahsulotning yig'ilish tezligi esa pasayadi va oxirida esa nolga etadi. Yig'ilayotgan mahsulot initsiruet va doim qaytar reaksiyani tezlashtiradi. Agarda sistemadan mahsulot chiqarib yuborilsa, xom ashyoning butunlay konversiyasiga erishish mumkin va jarayonning boshlang'ich yuqori unumdorligini saqlab qolish mumkin.




Membranali reaktorlarning prinsipial sxemasi

a) apparat ichiga o'rnatilgan membranali reaktor; b) tashqi membrana apparatli reaktor.


Membranali bioreaktorlarda mikrofiltratsiya va ultrafiltratsiya, shuningdek aerob biologik jarayonlar mavjud.

Membranalarning trubali, yarim to'qimali, silliq romlilari mavjud. Ular asosan ishlab chiqarishdagi oqava suvlarni tozalashda qo'llaniladi.



Membranali bioreaktor sxemasi.

1- reaktor, 2 - aerator, 3 – yarim to‘qimali membranalar,, 4 - havo, 5 –tozalangan suv, 6, 9 – nasoslar, 7 - manometr, 8 – filtrat.



Membranali bioreaktor 10-20 membrana kassetalaridan iborat. Kassetada 5-15 bog‘ membranali to‘qimalardan iborat va loyqa aralashmani ajratib olishda ishlatiladi. yarim to‘qimali membrana ipsimon bo‘lib tashqi diametri 2mm va uzunligi 2 m.gacha bo‘ladi. Ipning yuqori qismi ultrafiltratsiyali membranani mujassamlashtiradi. Har bir poralarning o‘lchami 0.03-0.1mkm. Har bir bog‘lam 100-1000 membranali to‘qimalardan iborat bo‘lib, umumiy filtr patrubbkaga o‘ralgan. Filtratsiya jarayoni vakuum ostida olib boriladi.

Fermentatsion muxitni aeratsiyalash

Aerob mikroorganizmlarni bioreaktorda chuqur kulturatsiyalash uchun eng avvalo gazli fazadan xujayralarga kislorod massauzatish intensivligini ta‘minlash zarur. Bunga albatta aktiv aeratsiyalash va aralashtirish yo‘li bilan erishish mumkin.

Apparatlardagi fermentatsion muxitni aeratsiyalash va aralashtirish funksiyalari bir uskunada birlashtirilgan bo‘lsada, har birining roli boshqa-boshqadir.

Fermentyorlarda aralashtirishdan maqsad quydagi keltirilgan vazifalarni bajarishdir.

- gaz-suyuqlik va suyuqlik xujayra massauzatish intensivfikatsiyasi;
- termostatlanayotgan muxitga issiqlik uzatish intensivfikatsiyasi;
- gaz pufakchalari va suyuqlik tomchilarining disperslanishi;
- aralashtirilayotgan muxit hajmidagi haroratning tenglashtirilishi;
- muxit hajmidagi moddalar konsentratsiyasining tenglashtirilishi.

Aeratsiyalash, shu bilan birgalikda fermentatsion muhitni kislorod bilan to‘yintirish uchun zarur. Kulturatsiyalangan suyuqlikda ikkita bir-biriga bog‘liq jarayon sodir bo‘ladi.

1. Gazdan suyuq kislorod absorbsiyasi ;

2. Suyuqlikdagi mikroorganizm hujayralarining kislorodga bo‘lgan talabi.

Fermentatsion muhitni aralashtirish.

Fermentyorlarda aralashtirish jarayoni massayutish intensivfikatsiyasining asosi hisoblanib, unda kislorodning gazli fazadan suyuqlikka o‘zgarishi quyidagi sabablarga tayanadi:

- gazning mayda pufakchalarga qo‘shimcha disperglanishini ta‘minlaydi, faza kontaktlarining yuqori qismini kengaytiradi;
- gaz pufakchalarini suyuq fazaga etib kelish vaqtini va fazalar kontakti vaqtini ta‘minlaydi;
- xujayralar kolonnasi o‘lchamini qisqartiradi va muhitning effektiv qovushqoqligini pasaytiradi;
- statsionar suyuqlik plyonkasi qatlamini kamaytiradi, massauzatishi koeffitsientini ko‘taradi.

Jarayonlar fizik mexanizmi bo‘yicha, aralashtirishni tezlashtirishi ko‘ra, ularni 3 guruxga bo‘lish mumkin:

1-qurux eruvchan moddalarni yuritish (olib borish, olib yurish) jarayonlari.(tomchi, xujayra, boshqa muallaq zarrachalar, gaz pufakchalari va masofadagi issiqlik.)

2-qurux pufakcha va tomchilarni parchalash (maydalash) va ularni o'lchami. Apparat o'lchamiga nisbatan ancha kichik, aralashtirishning oxirgi natijalari – tomchi va pufakchalarning diametri yoki ularning yuqori qismi intensiv mikromashtabli turbulentda aniqlanadi.

3-qurux suyuqlik-gaz, suyuqlik-xujayra va suyuqlik-qattiq yuza qismining bo'linish chegaralarida issiqlik va massaalmashinish sodir bo'lishi bilan asoslanadi.

Kulturlash jarayonini qoidaga binoan aralashtirish natijasida suyuqlikning xarorati rejimi sodir bo'ladi, lekin odatda butun apparat xajmida yuqori turbulentlikni xosil qilish mushkul. SHuning uchun suyuqlikni aynan trubulentlik intensiv (jadal) bo'lgan zonada o'tkazishga xarakat qilinadi.

Aralashtirish effekti trubulentlik darajasi va serkulyasiya intensivligiga bog'liq. U vaqt bilan belgilab butun suyuqlik ma'lum oqimdan o'tishini ta'minlaydi.

Trubulent pulsatsiyasi mashtabini masofa (l) deb faraz qilsak, aynan shu masofaga trubulent uyurma material nuqtani o'tkazishi mumkin. Eng tezkor pulsatsiyalar eng katta trubulent mashtabiga ega. Ularda trubulent xarakatning asosiy kinetik energiya qismi mavjud. Bu pulsatsiyalardagi Reynold (Re) sonining lokal ahamiyati shundaki, undagi butun oqim butunligicha qoladi. Turbulent rejim uchun:

$$Re = wlp/\mu > 10$$

w -oqimning tezligi

l -xarakterli o'lcham

ρ -oqim zichligi

μ -muxitning qovushqoqligi

Eng tezkor pulsatsiyalar amaliy jixatdan energiya sochmaydi va kinetik energiyani mos energiyasiga o'tishi juda kam miqdorda bo'ladi.

3-MA'RUZA

Bioreaktorlarda sterillash , asseptikani ta'minlash xamda bioreaktorlardagi gidrodinamik tizimlar

Reja

1. Bioreaktorlarda sterillash usullari
2. Fermentyorlarda issiqlik almashinishi.
3. Bioreaktorlardagi gidrodinamik tizimlar
4. Siqilgan gaz yordamida pnevmatik aralashtirish.

Asseptik kulturalash (o'stirish) ni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy talablarni bajarish kerak:
- fermentatsion uskunalarning barcha elementlar va bulimlarini sterilizatsiyasi va germetikligini ta'minlash;

- kulturalash jarayonining boshlanishidan oxirigacha aseptik xolatini saklash;
- fermentyorga steril xoldagi kattik, sochiluvchan suyuq va gaz okimini kiritish.

Kattik sochiluvchan muxitni sterilizatsiyalash uchun issiklik bilan birga «sovuk» sterillash metodi va davriy yoki uzluksiz rejimdan foydalaniladi.

Issiklik metodiga quyidagilar ta'lukli:

- suv bugi yordamida sterillash (yopik (gluxoy) yoki o'tkir bug turlicha bosimda)
- muxitni elektr isitish yuli bilan sterillash;
- infrakizil nurlar yordamida sterillash;
- yukori chastotali va SVCH yordamida sterillash.


Sterilizatsiya usullariga quyidagilar kiradi:

- ionlashgan nurlanish;
- ultratovuvchi ta'siri;
- kimyoviy reagentlarning ta'siri;
- ultrabinafsha nurlanish.

Sterilizatsiyalash jarayonini olib borish uchun suv bug'i yordamida sterilizatsiyalash metodi qulay hisoblanadi va u quyidagi talablarga javob beradi:

- oson transportlanadi;
- etib borishi kiyin bulagan joylarga oson kirib boradi;
- kondensatsiya paytida yukori issiklik kaytarish xususiyatiga ega;
- mikroorganizm va personal uchun zararli emas;
- arzon;
- oziqa muxiti tarkibiga zarar etkazmaydi;

Suyuq muxitni sterillash uchun kupincha uzluksiz rejimda ishlaydigan sterilizatsiyalash uskunalaridan foydalaniladi. Ularda asosiy bulim (uzel) isitish kolonkalari xisoblanib muxitni tez sterilizatsiyalash xaroratigacha kizdirib beradi.



Fermentyorlarda issiqlik almashinishi.

Fermentyorlardan issiqlikni samarali chiqarish uchun jarayon texnik va texnologik nazariy xulosalarga tayangan xolda, apparatni to'g'ri ekspluatatsiya qilish zarur. SHuning uchun apparatning issiqlik balansini hisoblanayotganda issiqlik almashinish uskunalaridagi yuklangan yuklama maksimal darajada bo'lishi kerak.

Kulturalanayotgan muxitga berilayotgan harorat mikroorganizmlarning fiziologik holati tarkibiga katta ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan mikroorganizmlarning o'sishi tezligiga ta'sir etadi.

Ma'lumki, xar bir produtsent uchun o'stirishning optimal harorati mavjud. SHuning uchun ishlab chiqarishda haroratni ± 1 S da ushlab turiladi. Biroq ba'zi bir holatlarda haroratni rostdlashning bunday rostdlashning o'zi etarli emas.

Kulturlash jarayoning optimal haroratini ta'minlash mushkul texnik muammo hisoblanadi. Amaliyotda issiqlik ajratish jarayoni katta sarmoya talab etadi va murakkab sistemali issiqlik qaytarish uchun asosan apparat issiqlik yuklamasini xajmiga qarab korpusining sirt qismi,

shu bilan birgalikda ichki funksional konstruksiyalar yoki issiqlik almashtirgichlardan foydalaniladi.

Fermentyorni tashqaridan sovitish (isitish) jarayoni ko‘p xollarda apparat rubashkasi orqali amalga oshiriladi, bu biotexnologiya yoki boshqa sohalarda issiqlik almashinish jarayonining keng tarqalgan usuli xisoblanadi. Jarayonning asosiy hususiyati shundaki, bunday tipdagi issiqlik almashinuvchi uskunalarda apparat ichki hajmidagi konstruktiv elementlar bo‘lmaydi, aynan shu narsa fermentyorni ekspluatatsiya qilishni engillashtiradi va ishchi xajmning sodda holdagi va ishonchi germetikligini ta’minlaydi.

Issiqlik ajratish yuqori bo‘lganda turli tipdagi qurilgan

issiqlik almashtirgichlar qo'llaniladi. Fermentyorlarda ichki issiqlik almashinish uskunalari sifatida zmeevikli uskunalardan foydalaniladi. 5m^3 xajmli apparatlarda bir dona zmeevik apparat markaziy qismiga o'rnatiladi. Hajm jihatdan yanada kattaroq bo'lgan apparatlarda bir nechta zmeevik aralashtirish bo'yicha o'rnatilib qaytaruvchi to'siqlar funksiyasini bajaradi.


Biokimyoviy reaktorlarda issiqlik almashinishi uzluksiz yoki ko'p pog'onali bo'lishi mumkin. Uzluksiz issiqlik almashininganda reaktorda issiqlik o'tkazuvchan maydoni bo'lishi kerak, u reaksiya zonasi yonida joylashgan bo'lib issiqlik almashinishini, reaksiyaga kiruvchi moddalarni butun yo'lida ta'minlashi kerak. Ko'p pog'onali issiqlik almashininganda issiq uzatuvchi maydon reaksiya zonasidan tashqarida joylashtiriladi. Ayrim hollarda uzluksiz issiqlik almashinishini ko'p pog'onali bilan birga olib borish mumkin. Biokimyoviy reaktorlarni sovitganda (isitilganda) har xil usullardan foydalanish mumkin.

Reaksion apparatda issiqlik almashinuvining texnik usullari daraja sharoitidan jarayonlarni olib borish, xamda fizik, issiqlik reaksiyalarga kiruvchi moddalar va issiqlik tashuvchilarni kimyoviy holatiga bog'liqdir. Reaktorda sovitish (isitish) jarayoni ikkita asosiy usullarga bo'linadi:

a) to'g'ri;

b) tegishli issiqlik almashtirish.

Reaktorlardagi tegishli bo'lgan issiqlik almashinishda issiqlik olib yuruvchi moddalar o'tib bo'lmaydigan, uning ichidan issiqlik almashinuvi kechadi. Issiqlik o'tkazuvchi maydon xar xil geometrik shaklda bo'lishi mumkin. Masalan zmeevikli, rubashkali, trubali va boshqalar. Ular apparat tashqarisida va apparat ichida joylashgan bo'lishi mumkin. Bu ichki va tashqi issiqlik almashinish qurilmasi reaktorda optimal darajalar tartibini moddalarni biokimyoviy o'zgarish siklining hamma vaqtida saqlanib turishi kerak. Aralashtirgichli reaktorlarining issiqlik almashinuv qurilmalari turlari quyidagi rasmda keltirilgan.



Rasm 22. Aralashtirgichli reaktorlarda issiqlik almashinish qurilmasining turlari:
a – rubashkali, b – zmeevikli, v - trubchatkali


Reaktorda isitishni ko'p hollarda rubashka orqali issiqlik berish bilan amalga oshiriladi. Bu eng ko'p tarqalgan va samarali usul hisoblanadi. Bu usuldagi issiqlik almashinuvi qurilmasining asosiy afzalliklaridan biri apparatning ichki hajmini konstruktiv elementlardan bo'shatadi va u reaktorni ishlatishni ancha engillashtiradi. Oddiy va ishchi xajmini germetizatsiyasini mustaxkamlaydi. Issiqlik almashinuv jarayonlarini jadallashtirish uchun yangi konstruksiyadagi tashqi issiqlik almashinuv qurilmalarini ishlatganda seksiyalashgan spiral peregorodkali rubashka yoki spiral peregorodkali qurilmani hamda tengensimon issiqlik tashuvchini kirish qismi ishlatiladi. Bu issiqlik almashinuv tezligini oshirib (issiqlik uzatish koeffitsienti) va bir vaqtning o'zida ularni tartib solish sharoitini yaxshilaydi. Ammo tashqi issiqlik almashinuv qurilmasini ishlatganda apparatning bo'yi chegaralanadi. Reaksion xajmni 1m^3 ga ko'paytirganda ularni amaliyotda qo'llash maqsadida issiqlik almashinish maydonining kamayganligi, metil sarfining ko'payishi (issiqlik almashinuv maydonining va apparat devorini qalinligini oshirishni to'g'ri kelishidir).

Reaktorlarda ichki issiqlik almashinuv qurilmalari sifatida zmeeviklar qo'llaniladi. Agar zmeeviklar bilan taqqoslaganda ular kun sverkali bog'lanishlardan iborat va shuning uchun ko'p mehnat sarf bo'lib tayyorlashda murakkab va ekspluatatsiya qilishda yaxshi emas. SHunday sabablarga ko'ra, zmeeviklarga qaraganda ular kam qo'llaniladi. Ichki issiqlik almashinuv qurilmalarning konstruksiyalari dostupnost va ko'rish uchun oddiy, biokimyoviy reaktorlarni tozalash va sterillashni hamda ularni ko'chirib o'tkazganda vibratsiyani oldini olish uchun reaktor korpusiga qattiq o'rnatish ta'minlanishi kerak. SHuni ham ta'kidlash kerakki, issiqlik almashinuv qurilmasining joylashishi va issiqlik almashinishi va reaksiya xajmida sharoitini yomonlashtirda. Undan tashqari, patrubkalar zmeevidan issiqlik tashuvchi kirish va chiqish patrubkaning borligi, ular qopqoqdagi korpusning tagida yoki devorida paytlashishi mumkinligi reaktorda geometrik ishlash sharoitini yaratishni murakkablashtiradi.

Bioreaktorlardagi gidrodinamik tizimlar


Texnologik imkoniyatlarni aniqlash nuqtai nazardan biokimyoviy reaktorlar gidrodinamik va massalmashinish ko'rsatkichlari bo'yicha maqsadli ravishda sistemalanadi. Bu ko'rsatkichlar aralashtirish uchun berilgan energiya va reaktorlardagi aeratsiya jarayoni va ularning ma'lum miqdoriga bog'liq bo'ladi. SHunga binoan biokimyoviy reaktorlar uch guruhga bo'linadi:

1. Gaz faza orqali energiya beruvchi reaktorlar;
2. Suyuq faza orqali energiya berish reaktorlari;
3. Kombinirlangan usul orqali energiya uzatish reaktorlari.



00-rasm. Biokimeviy reaktorga energiya olib kelishning asosiy usullari a – gaz fazasi orkali, b – suyuq faza orkali, v – kombinirlangan usul orkali.

Gaz faza orqali energiya beruvchi reaktorlar. Bu guruh apparatlar o'zining konstruksiyasining soddaligi, ekspluatatsiya qilishning osonligi bilan ajralib turadi. Unda qo'zg'aluvchi detal va biriktiruvchi qismlar mavjud emas. Bunday apparatlar turkumiga barbatyorli, erliftli fermentyorlar kiradi.




3.17-rasm. Gazliftli fermentyorlar

Bu apparatlarning umumiy xususiyati gaz fazali energiya berishdan iborat. Bu gurux fermentyorlar konstruksiyasi jixatdan oddiy va ekspluatatsiya qilish darajasi yuqoridir. Xarakatlanuvchi tugun zanjir va

detallardan xoli. Bu gurux fermentyorlarga barbotajli, erliftli, barbotaj-erliftli fermentyorlar misol bo'ladi. Bundan tashqari kolonnali fermentyorlar xam yuqori o'rinda turadi.


3.11-rasm. Gaz fazali energiya berish fermentyorlari



Газ fazali energiya uzatish fermentyorlari

a-barbotajli fermentyorlar, $N/D < 2$, **b**-kalonna barbotajli fermentyor, $N/D < 2$, **v**-gazliftli barbotajli fermentyorlar, $N/D < 2$, **g**-kalonna gazliftli fermentyor, $N/D > 2$, **d**- tomchi kalonnali gazliftli fermentyor, **e**-

Suyuq faza orqali energiya uzatish reaktorlari. Bunday apparatlarga o'zi yutuvchi element yoki nasoslarga o'xshash konstruktiv xarakterli apparatlar misol bo'la oladi. Bu guruhga o'zi yutib aralashtiruvchi fermentyorlar tashqi sirkulyasion konturli ejeksion sistemali aralashtirish va aeratsiyalash kiradi.



3.30-rasm Achitqilarni neft uglevodorodida o‘stirish uchun mo‘ljallangan fermentyor.
 1- korpus, 2-issiqlik almashirgichli sirkulyasion kontur, 3-o‘zi yutuvchi truba ejektor,
 4- elektrodvigatel, 5-tayanch, 6-sovuq suvni kiritish uchun shtutser, 7- suyuqlikni chiqarish
 uchun shtutser.


Suyuq fazali energiya uzatish fermentyorlari.

Bu gurux apparatlariga odatda energiya suyuq fazaga o‘zi yutuvchi aralashtirgich yoki nasoslar yordamida beriladi. Bundan tashqari suyuqlik apparatga maxsus uskunalar (soplo, ejektor, dispergator va boshqalar) yordamida kiritiladi.

Bu guruhga o‘zi yutuvchi aralashtirgichli fermentyorlar kiradi va ular keng tarkalgan fermentyorlar xisoblanadi. Bu apparatlarga xavo xavo-purkovchi maxsus mashinadan berishi shart emas. Bu uning yutug‘i xisoblanadi.


Kamchiligi: gaz saqlovchi kultural suyuqlikni maxsus nasoslar yordamida xaydash lozim. Unda tashki sirkulyasion kontur, nasos, ejeksion uskunalar truprovod sirkulyasion sistemalari mavjud.

3.12-rasm. Suyuq fazali energiya uzatish fermentyorlari




a-bir o'zi yutuvchi aralashtirgichli fermentyor, ***b***-bir necha o'zi yutuvchi aralashtirgichli fermentyor, ***v***-o'zi yutuvchi aralashtirgichli va tashqi sirkulyasion konturli fermentyor, ***g***-ejeksion fermentyor, ***d***-cho'ktirilgan oqimli ,oqimli fermentyor, ***e***- uzatuvchi oqimli ,oqimli fermentyor, 1- korpus, 2- o'zi yutuvchi aralashtirgich, 3-sirkulyasion kontur, 4- nasos, 5- diffuzor, 6-issiqlik almashtirgich, 7-ejektor, 8-vozduxoabornik, 9- kesgich, 10- nasadkali truba.

Kombinirlangan usul orqali energiya uzatish reaktorlari. Bunday apparatlarning asosiy konstruktiv elementiga yuqori samarali disperslash va gomogenizatsiyalashni ta'minlovchi aralashtirish uskunalari kiradi. Bu guruhga mexanik aralashtiruvchi va bir vaqtning o'zida havoni siqib barbotajlovchi yuqori intensiv xarakterli apparatlar misol bo'ladi.



3.36-rasm. Mitsella xosil qiluvchi mikroorganizmlarni o'stirish uchun mo'ljallangan ko'pik so'ndirgich va yassi parrakli trubina arlashtirgichli fermentyor.

1- barbotyor, 2-issiqlik almashtirgich, 3-ko'p yarusli trubinali aralashtirgich, 4- ostki yuritma, 5- aeratsiyalanayotgan agent (havo) ning kirishi, 6- ko'pik so'ndirgich, 7- fermentyorning tayanchi.



3.13-rasm Suyuq va gazli fazalarga energiya berish fermentyorlari

a-bir valli aralashtirgichli fermentyor, *b*-ko'p valli aralashtirgichli fermentyor, *v*- kolonna aralashtirgichli fermentyor, *g*- vibra aralashtirgichli fermentyor, *d*- kombinirlangan energiyani kolonna orqali berish fermentyori, *e*- kombinirlangan energiya berish fermentyori, *ж*- sirkulyasion konturli fermentyor, 1-korpus, 2- val, 3-arlashtirgich, 4-havotaqsimlagich, 5- issiqlik almashtirgich, 6-diffuzor, 7-nasos, 8- quyuvchi quvurlar, 9-tarelka.

Bunday turdagi apparatlarning asosiy konstruktiv elementi aralashtirish uskunasi xisoblanadi. U kislorodning aralashish yuqori intensivligini, gazni yuqori darajada dispergirlanishini, muxitni gomogenizatsiyalashni ta'minlaydi.

Hozirgi kunda biokimyoviy ishlab chiqarishda turli xildagi fermentativ apparatlar ishlatilmoqda, barcha foydalanilayotgan bioreaktorlarda fizik jarayon (gidromexanik, issiqlik va massaalmashinuv) lar ro'y beradi, shuning uchun bioreaktorlarda biokimyoviy jarayon – moddalar hosil bo'lishi yuz beradi. Bunday fizik jarayonlar sodir bo'lishi uchun biokimyoviy reaktorlar tipik konstruksiya elementlari (aralashtirgich, kontakt uskunalar, issiqlik almashinuvchi uskunalar, dispergatorlar va b) bilan ta'mirlanadi. SHuning uchun barcha fermentlar kompleks apparatlar xisoblanadi.

Turli konstruksiyali fermentlarning barchasi xujayrani o'stirish jarayonining asosiy talablariga javob berishi kerak:

- barcha oziq moddalarning har biri xujayraga kerakli miqdorda etib kelishi;
- metabolism maxsulotlarining xar bir xujayradan chetlanishi;
- xar bir nuqtada mikrob suspenziyasining termostatlanishi;
- xar bir nuqtadagi optimal ishchi parametrlarini ushlab turish;
- talab etilgan aeratsiya, aralashtirish darajasi;
- kulturlash jarayonining avtomatizatsiyalashning yuqori darajasi;
- texnika xavfsizligi.

Metabolizm mahsulotlari- muhitga gazsimon yoki suyuq holdagi mahsulotlarning ajralib chiqishi natijasida muhitga biomassa yoki metabolism mahsuloti hisoblanadi.

Bu talablarni bajarish uchun har bir fermentyor quyidagi sistemalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak:

- gaz oqimining kirish va chiqishi;
- fermentatsion muhit aeratsiyasi;
- fermentatsion muhitni aralashtirish;
- fermentatsion muhitni kupiksizlantirish;
- fermentyor va fermentatsion muxitni sterillash;


- apparatdan suyuq (yoki sochiluvchan) oqimni chiqarib yuborish;
- jarayonga berilgan parametrlarni nazorat qilish va rostlash.

Siqilgan gaz yordamida pnevmatik aralashtirish.

Siqilgan gaz yordamida pnevmatik aralashtirish kam intensiv jarayon xisoblanadi.

Energiya sarfi goh kam , goh mexanik aralashtirishdagidan xam ko'proq bo'ladi. Bunday apparatlarning pastki qismiga gaz taqsimlovchi uskuna-barbatorlar o'rnatilgan bo'ladi.

(1.5-rasm)



Barbatorlarning asosiy tiplari.


A-to'g'ri burchakli, b- aylanasimon, v- nirsimon.

Unda sirkulyasiya jarayonida uncha katta bo'lmagan qisqarish sodir bo'ladi, shuning uchun ko'p xollarda muhit komponentlarini butun apparat bo'ylab bir me'yorda taqsimlanmasligiga olib keladi. Barbatorlarga qo'yiladigan asosiy talablar xavo suyuqlik pufakchalariga bir xilda to'yinishi va kichik o'lchamli pufakchalarning xosil bo'lishidir. Kichik tezlikda tirqishdan chiqayotgan pufakchani o'lchami quydagi tenglama orqali topiladi.

Bu tenglamada biz pufakcha hajmi va barbator tirqishi diametri o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tenglamasiga ega bo'lamiz: Barbatorli fermentyorlarda xavo pufakchalarining diametri odatda 1,5dan to 10mm gacha, tezlik esa 20 dan to 30 sm/s gacha buladi.

Suzuvchi pufakchalar suyuqlikning aralashishiga majbur qiladi. Shu bilan birga fazalar kontakti solishtirma yuza qismining va massauzatish hajmi koefitsientining ko'payishi (kengayishi).

Barbatorli apparatlarda issiqlik va massa almashinish jarayonini intensivlashtirish (jadallashtirish) maqsadida apparatlarga qo'shimcha uskunalar-diffuzorlar va turli xildagi kontakt elementlar o'rnatiladi.



(1.6-rasm) 1- korpus, 2-diffuzor, 3-havo yurituvchi quvur, 4-yo'naltiruvchi zont, 5-havo taqsimlagich.

intensifikatsiyalash (jadallashtirish) maqsadida apparatlarga qo'shimcha uskunalar-

diffuzorlar va turli xildagi kontakt elementlar o'rnatiladi.

(1.6-rasm) Lefransua sistemasida ishlaydigan klassik fementer sxemasi keltirilgan.

Unda aeratsiyalashning erlift ozuqa achitqilari ishlab chiqarishda qo'llaniladigan prinsipi va muxitni aralashtirish sistemasidan foydalaniladi.

4-MA'RUZA

Fermentyorlarda ko'pik hosil bo'lishi va uni bartaraf etish usullari.

Reja:

1. Fermentyorlarda ko'pik xosil bo'lishi.
2. Ko'pikni bartaraf etish metodlari.
- 3.

Ko'p fazali geterogen texnologik jarayon gazli faza xisobida gidrodinamik sharoitda ko'pincha ko'pik xosil qilishga olib keladi. Ko'pik xosil qilinishi suyuq fazadagi sirt-aktiv moddalari (YU.A.M) tufayli sodir bo'ladi. O'z navbatida ular sirt taranglikni tez kamaytirib, gaz va suyuqlikdan iborat sirt bo'limlari turg'unligini oshiradi.

Gaz pufakchalarini bunday suyuqlik qatlamidan o'tishi natijasida pufakchalar plyonkasining stabilizatsiyasi sodir bo'ladi va ko'pik hosil bo'lishiga olib keladi (toza suyuqlik amaliyotda ko'pik xosil qilmaydi).



Biokimyoviy jarayonlarda kultural suyuqliklar ancha ko'p oqsil moddalarni o'zida saqlab ular sirti tarang birikmalar xossasiga egadirlar (mikroorganizm metabolitlarining asosiy mahsulotlaridir). SHuning uchun jarayonlar qoida bo'yicha faol ko'pik hosil bo'lishi bilan olib boriladi. Ko'pik hosil bo'lishi biokimyoviy jaraynlarni olib borishni murakkablashtiradi va bu sharoitda u zararlidir. Kultural suyuqliklarning ko'pirishi reatorlarninig to'ldirish koefitsientini kamaytirishga sabab bo'lib, maxsulotni yo'qolish va olib ketish hisobiga atrof muhitni ifloslantirish, aerorik xavoni tozalovchi filtrlarning ishdan chiqishi olib keladi. Ammo shuni takidlash kerakki, ko'piklarning bo'lishi suyuq muxitda kislorodni erishini tozalashtirib, unda massa almashtirish sirtida katta maydonning hosil bo'lishi, jarayonlarni gaz suyuqlik emulsiyada olib borish yoki harakatlantiruvchi ko'pikda aeratsiyaga keladigan havoni siqishi uchun ketadigan energiyani sarfini kamaytiradi.

Shuning bilan birga, ko'pik murakkab fizik-kimyoviy sistema bo'lib, ko'pikni yo'qotish masalasi ko'p tomonlama va ko'pik hosil bo'lish mexanizmi va kinetikasini bilishga asoslangan holda hal qilinishi

kerak. Shu sababga ko'ra reaksiyon apparatdan ko'pikni o'tilib chiqishini oldini olish uchun har xil usullar qo'llaniladi.

Suyuqlik va unda taqsimlangan gaz pufakchalaridan tashkil topgan sistemalar ko'piklar deyiladi. Ko'pik-murakkab fizik-kimyoviy sistema xisoblanadi. Ko'piksizlantirish jarayonining vazifasi ko'p qirrali bo'lib, uni ko'piksizlantirish mexanizmi va kinetikasini bilmay turib, uni o'rganish mumkin emas. Hosil bo'lgan ko'pikni reaksiyon apparatdan chiqarib yuborish uchun bir nechta usullardan foydalaniladi:

- 1) fizik
- 2) fizik-kimyoviy
- 3) texnologik
- 4) kombinirlangan.

Ko'piksizlantirishning fizik metodi.

Ko'piksizlantirishning fizik metodi bir necha usullarga bo'linadi:

- 1) Ko'piksizlantirishning akustik usuli.
- 2) Ko'piksizlantirishning issiqlik usuli.
- 3) Ko'piksizlantirishning elektrik usuli.
- 4) Ko'piksizlantirishning gidroaerodinamik usuli.
- 5) Ko'piksizlantirishning mexanik usuli.

1. Ko'piksizlantirishning akustik usuli- aerodinamik va magnitostriksion nurlanish xisobiga xosil bo'lgan tovush va ultratovush tebranishlariga asoslangan. Bu tebranish 10-100kGs gacha (tulqin, tovushli bosim, turbulentlik) bo'lib u ko'pik yacheykalariga muntazam berilib, uning pufakchalarini yoradi. Tovush intensivligiga qarab avval birinchi qatlam, so'ngra keyingi qatlamlardagi pufakchalar yorilib boradi. Uning kamchiligi shundaki, ultratovush usuli bilan kam miqdordagi ko'pikni yo'qotish mumkinligini iqtisodiy jixatdan asoslab berilgan.

2. Ko'piksizlantirishning issiqlik usulida- ko'pgina mikroorganizmlarning sezuvchanligi xisobga olib xarorat chegaralanadi. Issiqlik berish o'tkir bug' oqimi yoki yuza qismini isitish yo'li bilan amalga oshiriladi. Issiqlikning ko'pik bilan yaqinlashuvi natijasida bug'lanish sodir bo'ladi ayni shu narsa pufakchalarning yorilishi va ko'piksizlanishiga olib keladi.

3. Ko'piksizlantirishning elektrik usuli- elektr maydoni xosil qilish natijasida ko'pikni kamaytirish yoki umuman uni yo'q qilishga asoslangan. Samarali usullardan biri ko'pikni yuqori kuchlangan impulsli elektromaydonda ishlov berishdir. U texnik jixatdan zamonaviy, iqtisodiy jixatdan arzon va ko'piksizlantirish jarayonini avtomatlashtirish mumkin bo'lgan usuldur. Biroq bu usulda mikroorganizmlarga elektr maydonning ta'siri qay tarzda ta'sir etishi hozirgacha yaxshi o'rnatilmagan.

4. Ko'piksizlantirishning gidroaerodinamik usuli- bu usulda turli xildagi murakkab konstruksiyali, energiya yiguvchan oqimli ko'piksizlantirish uskunolari qo'llaniladi. Ko'pikni yo'qotish suyuqlik oqimining kuchli zarbasi yordamida amalga oshiriladi.

5. Ko'piksizlantirishning mexanik usuli- bu usulda pufakchalari mexanik kuch yordamida qisman yoki butunlay yo'q qilinadi. Buning uchun aylantiruvchi mexanik uskunalardan (rotor, turbina, parraklar, tarelkali paketlar va b)dan foydalaniladi. Ular reaktorning aralashtiruvchi valining o'ziga yoki alohida o'rnatiladi. Bu xamma uskunalar biokimyoviy reaktorlar asosiy konstruksiyasi qismlari xisoblanadi.

Ko'piksizlantirishning fizik-kimyoviy metodi.

Bu metodda tabiiy va sintetik moddalardan foydalaniladi. Tabiiy moddalar sifatida ko'pikni yo'qotish uchun o'simlik yog'i (masalan: kungaboqar yog'i, kostor yog'i, soya va b.q) va xayvon yog'lari (masalan: qo'y, mol, suyak va b) 2-2,5% (xajmga qarab) ishlatiladi. Bu eng oddiy usul xisoblanadi. Ular suyuqlik ustida qatlam xosil qilib pufakchalarni kamaytirishga va umuman yorilib ketishiga sabab buladi. SHuni xam aytib o'tish keraki, bu moddalar nafaqat ko'piksizlantirishga, balki biosintez jarayoniga, kultural suyuqlikka kislorod etkazib berishga xam salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oxirgi yillarda ko'piksizlantirish maqsadida sintetik ko'piksizlantiruvchi moddalar qo'llanilmoqda. Ularga birinchi navbatda ataylab sintezlangan kremniyorganik va poliefir birikmalar (polimetilsiloksan PMS-200, propinol B-400 va b) kiradi. Ular tabiiy moddalardan ko'ra o'n barobar arzondir.

Fizik-kimyoviy metod universal xisoblanmaydi, chunki har bir xodisa effektiv emas, olinayotgan maxsulot tannarxidan sarf-xarajat ko'proq va ko'piksizlantiruvchilarni dastlab sterillash zarur.

Ko'piksizlantirishning konbinirlangan metodi.

Texnik jihatdan bu metod zamonaviy metodlardan biri xisoblanadi. Uning asosi mexanik ko'piksizlantirishdan iborat, kritik xolatlarda esa kimyoviy ko'piksizlantirishdan foydalaniladi.

Mexanik ko'piksizlantirish mexanizmi xavo pufakchalarini yorish yoki ularni ishchi organ bilan o'zaro kontaktda bo'lganda maydalanib ketishidan iborat. Unda apparat ichiga va tashqarisiga o'rnatilgan ko'piksizlantirish uskunalaridan keng foydalaniladi.

Barcha mexanik ko'piksizlantirish uskunolari ikki tipga bo'linadi.


1. Rotorli

2. Siklonli.

Birinchi tipdagi ob'ekt-aylanuvchi organ formasi sifatida silliq disk misol bo'lib uning ishi uchun eng kam elektr energiya sarf bo'ladi.

Yanada perespektiv mexanik ko'pikni sundirish uskunalariga konussimon tarelkalar rotor paketi misol bo'ladi.


1.22- rasm. Konussimon tarelka paketli mexanik ko'pik so'ndirgich



1-elektromotor, 2-shpilka, 3-najimnaya gayka, 4- prujina, 5-kimyoviy ko'pik so'ndirgich kiritiluvchi patrubka, 6-najimnaya gilza, 7- qaytaruvchi sovutgich, 8- ftoroplastovoe uplotnenie, 9- disk, 10- tayanch podshipnik, 11- fermentyordan havoni chiqarib yuboruvchi patrubka.

Hozirda siklon tipdagi ko'pikni sundirish uskunasi keng qo'llaniladi. Tadqiqotlar natijasida shu ma'lum bo'ldiki, normal xolda ekspulovatatsiya qilingan fermentyor kimyoviy ko'pik so'ndirish usuli bilan birgalikda yanada ko'proq effekt berish mumkin.

1.23-rasm. Ko'piksizlantirishning kombinirlangan usuli



Quyidagi keltirilgan rasmda aynan shunday ko'pik so'ndirishning kombinirlangan usuli keltirilgan. Ko'pik uskunaga tangensial holda potrubkadan (2) 10-14 m/s tezlikda kiradi va halqasimon labirintda siklon korpusi va o'rnatilgan silindr (14) oralig'ida separatsiyalanadi. Suyuqlik potrubkadan (16) oqib chiqadi. Gaz esa boshqa potrubkadan (10) chiqariladi. Labirintda so'nmagan ko'pik rotorda (13) va datchik signali (8) orqali berilayotgan kimyoviy ko'pik so'ndirgich berilayotgan potrubka (12) da so'ndiriladi. Siklon uskunasi fermentyordan tashqarida o'rnatilsa sirkulyasiya intensivligi (7) soatiga fermentyorning ishchi xajmiga qarab oshib boradi.

5-MA'RUZA

Asosiy ishlab chiqarish fermentyorlari hamda ko'p bosqichli murakkab biotexnologik ishlab chiqarish tizimlari

Reja.

1. Fermentyorlarning sinflanishi.
2. Asosiy ishlab chiqarish fermentyorlari.
3. Ko'p bosqichli fermentyorlar.

Fermentyorlarning asosiy tiplari va ularning sinflanishi

1. Kulturalash jarayonini olib borish talabiga muvofik fermentlarning klassifikatsiyasi.
2. Energiya berish usuli bilan fermentatsion uskunalarining klassifikatsiyasi. Fermentatsiyalashning komplekt sistemasining ko'rib chiqamiz. Bunda fermentyor asosiy, biroq yakka bo'lmagan element xisoblanadi. Fermentyorlarni klassifikatsiyalash ularda bo'layotgan jarayonlarga qarab quyidagi guruxlarga bo'linadi:
 - 1) aerob, anaerob;
 - 2) davriy, uzluksiz;
 - 3) aseptik, nosteril;
 - 4) xujayradagi maqsadli maxsulot (xujayra tashqarisida);
 - 5) yuqori qism va gurux qismdagi o'sish;
 - 6) eruvchan va noeruvchan chuqurlikdagi o'sish;
 - 7) fermentyordagi ideal siqilish va ideal aralashishga yaqin bo'lgan gidrodinamik talablar.

Asosiy ishlab chiqarish fermentyorlari sifatida amaliyotda keng qo'llaniladigan apparatlar konstruksiyalarini ko'rib chiqamiz. Asosiy ishlab chiqarish fermentyorlari yuqori intensivlik va yuqori ishlab chiqarish samaradrolikka ega. YUqorida aytib o'tilgan asosiy ishlab chiqarish fermentyorlarni shartli ravishda uchta asosiy guruxga bo'lishimiz mumkin.

- Gazli fazaga energiya uzatuvchi
- Suyuq fazaga energiya uzatuvchi
- Kombinirlangan ishlash prinsipi

Mikroorganizmlar biologik aktiv moddalar produtsentini o'stirish uchun o'stiruvchi uskunalardan foydalaniladi. Ishlab chiqarish sanoatida turli konstruksiyali o'stirish uskunolari qo'llaniladi.

5.1-jadval

Uskuna	O'stirish talablari	Konstruksiya
O'stirish kamerasi	Siklik	Gorizontal joylashtirilgan kyuvetalar
IIQstirish uskunasi	Siklik	Vertikal joylashtirilgan kyuvetalar
VIS-42D	Uzluksiz siklik	Gorizontal joylashtirilgan polkalar
4GKSK-30(45yu90)	Uzluksiz siklik	Gorizontal joylashtirilgan lentalar
Vibratsiyali	Uzluksiz	Gorizontal, egik yoki vertikal joylashtirilgan plastinalar
Baraban tipidagi	Uzluksiz yoki davriy	Gorizontal joylashtirilgan polkalar

6-MA'RUZA

Fermentyordagi biosintez jarayonlarini optimallashtirish va hisoblash

Reja:

3. Aerob fermentatsiya jarayonida kislorodning massa uzatilishi.

4. Fermentatsiya jarayonining issiqlik effekti.

3. Fermentatsiya jarayonining kinetik xisobi.

4. Fermentyordagi jarayonning optimal hisobi va intensivikasiya masalalari.

Hujayralarning ko'payishi va o'sishning material asosini atrof-muhit assimilyasiya moddalari tashkil etadi. Ular konstruktiv (quruvchi) almashinish yoki anabolizm deyiladi.

Konstruktiv almashinish ma'lum bir energiya sarfini talab etadi. Energiya almashinish yoki katabolizmsiz buning iloji yo'q.

Avtotrof hayot tarzini olib boruvchi mikroorganizmlar konstruktiv almashinishda uglerod dioksididan foydalanadi. Ular organik moddalardan noorganik moddalar hosil qiladi. Ularga notrifirlanadigan bakteriyalar, sero- va jelezobakteriyalar misol bo'ladi.

Avtotrof mikroorganizmlar energiya manbaiga ko'ra 2 turga bo'linadi:

1. Fotosintetik
2. Xemosintetik


Geterotrof hayot kechiruvchi mikroorganizmlar anabolizm jarayonida tayyor organik birikmalardan foydalanadilar, masalan, uglevodlar.

Turli xildagi mikroorganizmlarda energetik jarayonlar odatda quyidagi sxema bo'yicha ketadi (illyustriruyutsya):


Aerob jarayon:



yoki



anaerob jarayon



yoki




Sut kislota

yoki




Fotosintez jarayoni



yorug'lik energiyasi

Biokimyoviy reaktorlarda issiqlik almashinishi uzluksiz yoki ko'p pog'onali bo'lishi mumkin. Uzluksiz issiqlik almashinganda bioreaktorda issiqlik o'tkazuvchan maydoni bo'lishi kerak, u reaksiya zonasida yonida joylashgana bo'lib issiqlik almashinishini reaksiyaga kiruvchi moddalarni butun yo'lida ta'minlashi kerak. Ko'p pog'onali issiqlik almashinganda issiq uzatuvchi maydon reaksiya zonasidan tashqarida joylashtiriladi. Ayrim xollarda uzluksiz issiqlik almashinishini ko'p pog'onali bilan birga olib borish mumkin. Biokimyoviy reaktorlarni sovutganda (isitilganda) har xil usullardan foydalanish mumkin. Reakcion apparatda issiqlik almashinuvining texnik usullari daraja sharoitidan jarayonlarni olib borish, xamda fizik, issiqlik fizik reaksiyalarga kiruvchi moddalar va issiqlik tashuvchilarni kimyoviy xolatiga qaramdir reaktorda sovo'tish (isitishni) ikkita asosiy usullarga bo'linadi to'g'ri va kosvenniy issiqlik almashtirish. Bioreaktorda kosvenniy issiqlik almashinishda issiqlik olib yuruvchi moddalar o'tib bo'lmaydigan, undan ichidan issiqlik almashinuvi kechadi. Issiqlik o'tkazuvchi maydon har xil geometrik shaklda bo'lishi mumkin, (zmeevikli, rubashkali, trubkali va boshqalar) tashqarida va apparat ichida joylashishi mumkin. Bu ichki va tashqi issiqlik almashinish qurilmasi reaktorda optimal darajalari tartibini moddalarni biokimyoviy o'zgarishi siklining hamma vaqtida saqlab turishi kerak. Aralashtirgich bioreaktorlarining issiqlik almashinuv qurilmalarining turlari quyidagi rasmda keltirilgan.



Rasm 22. Aralashtirgichli reaktorlarda issiklik almashinish qurilmasining turlari: a – rubashkali, b – zmeevikli, v - trubchatkali

Biotexnologiyada issiqlik almashinishda eng ko'p tarqalgan usul bo'ladi. Bu usuldagi issiqlik almashinuvi qurilmasining asosiy afzalliklari biri apparatning ichki xajmini konstruktiv elementlardan bo'shatish, va u reaktorni ishlatishni ancha engillashtiradi va oddiy va ishchi xajmini germetizatsiyasini mustaxkamlaydi. Issiqlik almashinuv jarayonlarini jadallashtirish uchun yangi konstruksiyadagi tashqi issiqlik almashinuv qurilmalarini ishlatganda seksiyalashagan spiral peregorodkali rubashka yoki spiral peregorodkali qurilmani hamda tengensimon issiqlik tashuvchini kirish qismi ishlatiladi. Bu issiqlik almashinuv tezligini oshirib (issiqlik uzatish koefitsienti) va bir


vaqtning o'zida ularni tartib solish sharoitini yaxshilaydi. Ammo tashqi issiqlik almashinuv qurilmasini ishlatganda apparatning bo'yi chegaralanadi. Reaksiya hajmi 1m^3 ga ko'paytirganda ularni amaliyotda qo'llash maqsadida issiqlik almashinuv maydonining kamayganligi, metil sarfining ko'payishi (issiqlik almashinuv maydonining va apparatni devorini qalinligini oshiroishni to'g'ri kelishidir).

Bioreaktorlarda ichki issiqlik almashinuv qurilmalari sifatida quy xollarda zmeeviklar qo'llaniladi. Agar zmeeviklar bilan taqqoslaganda ular kun sverkali bog'lanishlardan iborat va shuning uchun ko'p mehnat sarf bo'lib tayyorlashda murakkab va ekspluatatsiya qilishda yaxshi emas. SHunday sabablarga ko'ra, zmeeviklarga qaraganda ular kam qo'llaniladi. Ichki issiqlik almashinuv qurilmalarning konstruksiyalari dostupnost va ko'rish uchun oddiy, biokimyoviy reaktorlarni tozalash va steriallashtirish hamda ularni ko'chirib o'tkazganda vibratsiyani oldini olish uchun reaktor korpusiga qattiq o'rnatish ta'minlanishi kerak. SHuni ham ta'kidlash kerakki, issiqlik almashinuv qurilmasining joylashishi va issiqlik almashinishi va reaksiya hajmida sharoitini yomonlashtiradi. Undan tashqari, patrubkalar zmeevikdan issiqlik tashuvchi kirish va chiqish patrubkalushning borligi, ular krishkasida, korpusning tagida yoki devorida paytlashishi mumkinligi reaktorda geometrik ishlash sharoitini yaratishni murakkablashtiradi. Kinetik xisobning asosini kulturalash jarayonining kinetik bog'liqlik (mutelik, model) va stexiometrik koeffitsient o'zaro bog'liqligi tashkil qiladi. Mahsus adabiyotlarda biz turli xildagi limitlanayotgan substratdan (S) mikroorganizmlar o'sishining solishtirma tezligi (μ) yoki metabolizm mahsulotlarining ingibrlanish (R) bog'liqliklarini ko'rishimiz mumkin. Kinetik koeffitsient modeli K_S ; K_P ; K_{Pr} va bog'liklik adekvatligini tanlash uchun kinetik tajribalarning ma'lumotlaridan foydalaniladi. Masalan: mono bog'liqlik uchun:

$$\frac{1}{\mu} = \frac{K_S}{\mu_m} \frac{1}{S} + \frac{1}{\mu_m},$$

$$\frac{1}{\mu} = y; \quad \frac{K_S}{\mu_m} = \lambda_1; \quad \frac{1}{S} = z; \quad \frac{1}{\mu_m} = \lambda_0,$$

Bu tenglama ma'lumotlarni grafik va analitik qayta ishlash uchun qulay.
4.9-rasm Mikroorganizmlar o'sishining kinetik modeli



a-v- mikroorganizmlar o'sishi tezligiga ozuqa substrati konsentratsiyasining ta'siri, g-z- mikroorganizmlar o'sishi tezligiga metabolizm mahsulotlarining ta'siri.

Fermentatsiya jarayonini optimallashtirish va intensivlashtirish usullarining bir necha turlari mavjud. Ular mikrobiologik va texnologik usullarga asoslangan: – aktivroq shtamm – produtsentlarning qo'llanilishi; - apparaturaviy takomillashtirish;

- oziqa muhiti tarkibining optimallashtirish va kulturalash talablari;
- biostemulyatorlarni qo'llash;
- substrat, emulgatorlarni «tashuvchilar» va b.

Bu barcha usullar biotexnologik jarayonning maksimal maxsulodkorligini va oxirgi maxsulot chiqishini ko'paytiradi. Substratni ratsional ishlatilishi natijasida tan narx tushadi va maxsulot birligiga sarflanayotgan energiya kamayadi.

Xom ashyoning komponent tarkibi va uning «tozaligi» biosintez maxsulotlari chiqishi va sifatiga bog'liq. Mikrobl sintez maxsulotlari ishlab chiqarish mashtablarida toza substratlar qatorida, masalan, individual qoidalar, uglevod saqllovchi ozuqa chiqindilari ishlatiladi. Produtsentlarni kulturalashning optimal talablarini tanlashdi jarayonning fiziologik fazaliligiga katta e'tibor berish lozim. Bizga ma'lumki, davriy kulturalash jarayoni fiziologik jixatdan ikki fazali xisoblanadi, ya'ni bunda biomassa to'lishi maksimum tezligi vaqt bo'yicha maxsulot to'lish maksimum tezligiga mos kelmaydi. Agarda xar ikki tezlik mos kelsa, u xolda jarayon bir fazali xisoblanadi.

Xujayralarga kislorod transporti ta'sirini xisobga olib kulturalash jarayonini optimizatsiya qilish etarli darajada aktual va samarali usul xisoblanadi.

Texnologik jarayondan quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- fermentatsiya jarayonini izbytochnyy bosimda amalga oshirish;
- kislorodni aeratsiyalash yoki kislorod-xavoli aralashmadan foydalanish;
- muxitning fizik-kimyoviy xususiyatiga ta'sir etuvchi yoki kislorodning massa tashishni tezlashtiruvchi sirt-aktiv moddalardan foydalanish;
- kislorod tashuvchilardan foydalanish;
- xujayralarni aktivizatsiyalash maqsadida lazer, ultratovush, magnitli usullardan foydalanish;
- xaroart, rN, aeratsiya populyasiyasi buyicha siklik (stress) ta'sirlarning qo'llanilishi;
- mikroorgnizmlarning kislorod yutish tezligi bo'yicha substrat, tuzlarning optimal uzatish usulidan foydalanish.

Fermentatsiya jarayonini optimizatsiyalashning bu usullari aniq biosintez jarayoniga nazariy va eksperimental jihatdan yondoshishni talab etadi.

7-MA'RUZA

Fermentatsion laboratoriya qurilmalari. Fermentatsion uskunalarning asosiy tiplari

Reja:

1. Fermentatsion laboratoriya qurilmalari.
2. Fermentatsion uskunalarning asosiy tiplari.

Mikrobiologik zavodlar va biokimyoviy kombinatlarda ishlatiladigan laboratoriya fermentatsion uskunalarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Kulturalash jarayonida mikroorganizmlar effektiv shtammlari ustidan mikrobiologik seleksiya ishlari olib borish.
2. Mikroorganizm o'sish parametrlariga mineral tuzlar, suv va boshqa omillarga ta'siri, xom ashyo sifatiga ta'sirining ajratish analizi.
3. Xujayra metabolizmga ta'siri va fizik-kimyoviy, biologik tabiatga xos turli stimulyator qo'shimchalarning fermentatsiya jarayonidagi texnologik ko'rsatkichlarini o'rganish.
4. Kulturalash jarayonining optimal parametrlarini aniqlash (xarorat, rN muxit, aeratsiya darajasi, aralashtirish va b).
5. Mikroorganizmlar turli shtammlarining kinetik va stexnometrik bog'liqligini o'rganish.
6. Biomassa tarkibi va xujayra metabolizmining ikkilamchi maxsulotiga tashki omillarning ta'sirini o'rganish.

Laboratoriya fermentatsion uskunalari quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:


- fermentatsiya uskunasi konstruksiyasiga qo'yilgan talablar;
- texnologik sxemaga qo'yilgan talablar;
- sxemaning o'lchovchi (datchiklar) va nazorat kiluvchi (yoki boshqaruvchi) qismlariga qo'yilgan talablar.




Laboratoriya uskunalari sifatida 2 dan 100 l hajmgacha bo'lgan apparatlar ishlatiladi.

Tajriba o'tkazish uskunalari sifatida 0,5-2,0 m³ hajmgacha bo'lgan fermentyorlar ishlatiladi. SHu bilan birga kislorod massauzatish talablarini bajaruvchi, aralashmay qoladigan zonalardan xali, mikroorganizm hujayralariga «yumshoq» gidrodinamik ta'sir ko'rsatuvchi turli tipdagi fermentyorlardan foydalaniladi.

Quyidagi rasmda chuqur suyuq fazali kulturalashning aerob jarayonlarini o'tkazish uchun ishlatiladigan fermentlarning asosiy turlari keltirilgan.

Mikroorganizmlarni aerob chuqur kulturalash uchun mo'ljallangan fermentyorlarning asosiy tiplari.

Fermentyor turi	Aeratsiya va aralashtirish xarakteristikasi	Absorbsiya tezligi O ₂ kg/m ³ soat
Аппарат с мешалкой 	Muhit va dispers gazning intensivligi yukori aralashishning xujayraning mexanik lat eyish extimoli (mogor uchun) muxitga kislorodning aralashish darajasining ta'siri	5-20 (aralashtirgichning aylanishlar sonini o'zgartirilishi varirovat hisobi)

Эрлифтный аппарат 	Xujayra yumshoq mexanik ta'sir, aralashtirgich qismlarning mavjud emasligi.	2-8 Havoni sarflash bilan massaalmashinish va sirkulyasiya qisqarilishining o'zgarishi
Циркуляционный аппарат 	Turg'un zonalarining mavjud emasligi va mexanik kislarning yo'qligi; muxitni intensiv gidravlik aralashtirish	3-12 Sirkulyasion nasos unumdorligi va havo ejektor tavsifining o'zgarishi
	Mexanik qismlarning yo'qligi O₂ massauzlash intensivligining yuqori darajadali. Gaz oqimi sterilizatsiyasining qulayligi. Fermentatsiya jarayonining ko'ppogonali organizatsii.	5-15 Gazli faza sarfining tezligini tanlash xasiobiga o'zgarishi


Fermentatsion apparatlarning asosiy tiplari va ularning sinflanishi

1. Kulturalash jarayonini olib borish talabiga muvofik fermentlarning klassifikatsiyasi.
2. Energiya berish usuli bilan fermentatsion uskunalarning klassifikatsiyasi. Fermentatsiyalashning komplekt sistemasining ko'rib chiqamiz. Bunda fermentyor asosiy, biroq yakka bo'lmagan element xisoblanadi. Fermentyorlarni klassifikatsiyalash ularda bo'layotgan jarayonlarga qarab quyidagi guruxlarga bo'linadi:
 - 8) aerob, anaerob;
 - 9) davriy, uzluksiz;
 - 10) aseptik, nosteril;
 - 11) xujayradagi maqsadli maxsulot (xujayra tashqarisida);
 - 12) yuqori qism va gurux qismidagi o'sish;
 - 13) eruvchan va noeruvchan chuqurlikdagi o'sish;
 - 14) fermentyordagi ideal siqilish va ideal aralashishga yaqin bo'lgan gidrodinamik talablar.

Aralashtirgichli va barbotajli fermentyorlar.

Bunday fermentyorlarda aralashtirguvchi uskuna val bo'lib, unga bir yoki bir nechta aralashtirgichlar o'rnatilgan bo'ladi. Aralashtirgichlar tagida gaztaqsimlagich mavjud. Apparat ichiga sirkulyasion stakanlar va issiqlik almashtirgichlar o'rnatilgan bo'ladi.


3.44-rasm. Ostki yuritmal fermentyor (a) va ustki yuritmal fermentyor(b).



a) 1-korpus, 2-val, 3- diskli ochiq aralashtirgich, 4-barbotyor, 5- issqlik almashtirgich, 6- aralashtirgichning yuritmasi, b) 1-korpus, 2-val, 3-qayrilgan parrakli trubinali aralashtirgich, 4- stator, 5- barbotyor, 6-propeller aralashtirgich, 7- zmeevikli issiqlik almashtirgich, to'g'ri parrakli trubinali aralashtirgich.

Kombinirlangan fermentyorlar

Ular sirkulyasion konturli va aeratsiyali bo'ladi. Bu apparatlarda energiya suyuq fazaga o'q yo'nalishidagi aralashtirgichlar yoki nasos yordamida, xavo esa havopurkagich yordamida beriladi.



3.37-rasm. Murakkab ichki sirkulyasion konturli mexanik aralashtirgichli vertikal fermentyor

1- mexanik ko'pik so'ndirgich, 2-ustki qopqoq, 3-aralashtiruvchi uskuna, 4-korpus, 5-qobiq (rubashka), 6-diffuzor, 7-silindr, 8-barbotyor, 9-aralashtiruvchi uskunali stki yuritmasi.

8-MA'RUZA

Ishlab chiqarish bioreaktorlarini tanlash va ularning texnik iqtisodiy tavsifi. Ishlab chiqarishda qo'llaniladigan asosiy xom ashyolar, qo'shimcha materiallar va tayyor mahsulotlarga qo'yilgan talablar

Reja

1. Biokimyoviy reaktor turlarini tanlash.
2. Biokimyoviy reaktorlar ishining samaradorligini baholash

Biokimyoviy reaktorlarni aniqlash turlarini taqqoslash va tanlash-murakkab-texnik muammodir, uni hal qilish kerak: birinchi galda bir-biri bilan bog'langan ko'p sonli texnologik va iqtisodiy talablarni qirrali analiz qilish kerak. Reaktorning eng ahamiyatli xarakteristikalaridan biri uni ishlab chiqarishi jihatdan asosiy maxsulotga reaksiya xajm birligida teng bo'lishi kerak. Reaktor ishlab chiqarishning ko'rsatkichi biokimyoviy jarayonlarni kinetikasi bilan va reaktor turiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi kunda biokimyoviy reaktorlarning xarakteristikalarini taqqoslash mumkin. Uzlukli xarakteristikalar reaktorlarni uzluksiz ishlovchi reaktorlar bilan solishtirish shuni ko'rsatadiki, apparatda ishlab chiqarish ulushini bitta va o'sha birlikga erishish uchun, xar xil vaqt kerak bo'ladi. Oxirgi xodisa kimyoviy jarayonlarga ajratilgan toza vaqtga, qo'shimcha vaqtni qo'shish kerak, uzluksiz jarayonlar bog'liq bo'lgani uchun va ishlab chiqarishga tashqari vaqtning xarakati uchun. qo'shimcha vaqtning oqibati biokimyoviy o'zgarishlarni tez olib borib ko'rinadi, bunday xolatda uzluksiz reaktorlarni ishlatishni foydali emasligidir. Ammo, biokimyoviy reaksiyalar uchun kichik xajmda va sekin ularning ketishi, uchun uzluksiz reaktorlarning keng tarqalganligi ma'lum.

Ma'lumki, issiqlik miqdori professional yoki reaksiya xajmga xam xuddi shuning o'zidir. SHuning bilan birga issiqlik miqdorini reaksiya xajmdan olib chiqilayotgan yoki olib kelinayotgan issiqlik almashinuvchi proporsional bo'lishi kerak. Bioreaktor xajmi va uning ustki maydoni asosiy bioreaktor bo'yicha bir xil deb qarab bo'lmaydi. Uning diametriga apparat xajmi diametriga uch pog'onali proporsional maydoni esa faqat ikkiga. Bundan shu kelib chiqadi, apparatlarni bo'yini kattalashtirish (uning reaksiya xajmini) issiqlik olish ulushi kamayadi, issiqlik miqdorini reaktor hajmini birligiga to'g'ri keladi shuning uchun reaksiya xajmini oshirganda reaktorning issiqlik sharoitida ishlashi adiabatga yaqinlashishi kerak; katta bo'lmagan bo'yiga bioreaktorda bu sharoitlar izotermikka yaqin. Bu shuni ko'rsatadiki, kamaytirilgan (jadallashtirgan) issiqlik almashinishi amaliyotda katta bo'yli reaktorlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir (apparatlar katta reaksiya xajmlari), faollashganda esa-teskarisi reaksiya xajmini kichkinasi (katta apparatlar emas).

Bioreaktor turlarini tanlaganda kinetik omillarning analizi asosiy ahamiyatga ega bo'lib, ularni bir-biri bilan bog'lanishi, hamda jarayonning mexanizmidir.


Uzlukli xarakteristikalar reaktorlarda ideal to'liq aralashtirishda mahsulotni chiqishini solishtirib surib chiqarish (yoki uzluksiz xarakteristikalar reaktorlarning ideal aralashtirganda), reaksiya xajmda turg'un darajada o'zgarishi shuni ko'rsatadiki, ketma-ket reaksiyalar xolatida uzluksiz bioreaktorlarni ideal surib chiqaruvchilardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ammo, reaksiyaga kiruvchi moddalar o'rtasida faol issiqlik va massa almashtirish kerak bo'lsa, unda bioreaktorlarni kaskadini aralashtirishlar (chiqishni o'ziga kamaytirganda) ketma-ket ketadigan reaksiyalar uchun mahsulot sifatida o'rtadagi modda xizmat qilganda, surib chiqaruvchi xajmi xar maxal aralashtirgich reaktorning xajmdan kichik bo'ladi (o'zgarish pog'onasining bir xilligi). Bunday apparatni reaksiya xajmi orasidagi nisbat shu xolatda ro'y beradi, reaksiya tezligi shu mahsulotlarning ko'payishi hisobiga sekinlashadi va teskarisi mahsulotlarning ko'pcha borgan sari reaksiya tezligi ortadi.

Oddiy reaksiyalarni kaskad apparatni aralashtirgichlari reaksiya xajmini bir xil bo'lishi kerak, ayrim xollarda reaksiyalar murakkab bo'lsa, asosiy reaksiyalar tartibi ikkilamchi reaksiyalarga qaraganda katta, apparatlarning xajmi kaskadda sekin-asta oshib boradi. Birlamchi mahsulotning konsentratsiyasining turg'un kamayishi apparatlar reaksiya xajmini aralashtirgichni talab qiladi, siqib chiqaruvchi apparat xajmidan kichik bo'ladi.

Reaksiyalar uchun uzoq vaqt olib borishni talab qilsa, eng kichkina xajmi kaskad apparatlar aralashtirgichlari ishlatilganda reaksiya xajm eng kichkina bo'ladi. Reaksiya muxit darajasi turg'un

bo'lganida, o'zgarish tezligi reaksiyon aralshamadan qaram bo'lmay, apparatni kerakli reaksiyon xajmi kattaligi uning gidrodinamik turidan qaram bo'lmaydi.

Aralashtirgich va siqib chiqaruvchi apparatning samaradorligi reaksiyalarning xar xil tartibiga qarab quyidagi rasmda keltirilgan.



Rasm 26-27. Aralashtirgichli va sikib chikaruvchi reaktorlar uchun kiesiy samaradorlikning xar xil tartibdagi reaksiyalar uchun

1 – nolli, 2 – birinchi, 3 – ikkinchi, C_{nn} , G_{nb} – aralashtirgich va sikib chikaruvchi bioreaktorlar uchun ishlab chikishga nisbatan, x – uzgarish pog'onasi

Unda shu narsa ko'rinib turibdiki, o'zgarish pog'onasi va reaksiya tartibi qanchakatta bo'lsa, ular orasidagi o'zgarish shuncha katta bo'ladi. SHuning uchun eng katta ishlab chiqarishga ega bo'ladiganlar bu uzluksiz xarakatli ideal siqib chiqaruvchilar ekan. SHuning bilan birga keng tarqalgan geterogen jarayonlar fazalarining bir biri bilan xamkorligida faol aralashtirgichli apparatlarni ishlatishni talab qiladi. Bunday apparatlarni ishlab chiqarishni oshirishda keng qo'llaniladigan seksionerlangan yoki apparatlarni keng ulanganini tashkil qilish kerak.

Bioreaktorlarni tanlaganda va taqqoslashtirganda jarayonlarni kenetik xarakteriga qarab, reaksiyalar tezligining teskari birligi va moddalarining o'zgarishi pog'onasining o'rtadagi qaramligini ishlatish mumkin. Bu usul optimal ishlab chiqaruvchi tanlab jarayonlarning apparatlarini variantlarini reaksiyaning amaliyotda xar xil turini tayinlaydi.

Reaksiyalarning turlarini tanlashda tanlov (selektiv) jarayonlar olingan mahsulotning sifatiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Bioreaktorlar qonsentratsiyasining taqsimlanishining xar xil xarakterdaligi va maxsulotlarning apparat reaksiyon xajmida tushuntirib borish mumkin. Alohida xisobga olish kerakki, ketma-ket va parallal reaksiyalarniolib borganda. Agar reaksiyalar ko'p pog'onali xarakterda bo'lsa, undamaxsulot sifatiga reaksiyon xajmda bo'lish vaqti va konsentratsiyasining o'zgarishi asosiy sabab bo'ladi. Bu faktorlar bioreaktorlarning xar xil tarzda xar xil o'zgarib boradi, siqib chiqaruvchi reaktorlarda mahsulotni yuqori sifatini ta'minlash qiyin, apparat kesimida vaqtning o'zgarish diapozoni katta bo'lib muhitning katta sirti tarangligini borligi apparat devorida va uni o'rtasida o'zgarish pog'onasini xilma-xilligini tashkil qiladi. SHuning uchun eng ko'p tarqalgan bioreaktor turiga bunday parallellar uchun aralashtirgichli apparatlar yoki shunday apparatlarning kaskadi kiradi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy qoida mavjud, unda o'zgarish pog'onasining qiyshiq ko'rinishi asosida (selektiv) biokimyoviy jarayonlar o'zaro bo'likni va ularni apparatlarni tuzish mumkin.

Agarda bunday qaramlik yo'qolsa, unda uzlukli xarakat qiluvchi aralashtirgich apparati, yoki siqib chiqaruvchi apparat o'sib boruvchi qaram reaksiyalar uchun-uzluksiz xarakatlanuvchi aralashtirgich apparatlarini tanlash kerak.

Ammo, biokimyoviy jarayonlarning tanlashi reaksiyaga kiruvchi moddalarni etkazib borishga ta'sir qilib, bir vaqtning o'zida katta qonsetratsiyani va teskari, sekin asta kichik konsentratsiyani ta'minlash uchun.

Jarayonlarning kinetik qonuniyatlaridan tashqari, ular bioreaksion apparatlarning eng katta faktorlari bu tanlab va taqqoslashdir, hamma xolatlarida iqtisodiy samaradorlikni iqtisodiy koeffitsient va reaksiya selektivligi orasidagi o'zaro qaramlik, xamda xom ashyoni ishlatish koeffitsienti va uning o'zgarishining pog'onasini hisobga olish kerak. Mahsulot bahosini tashkil qiladigan va reaktorlarning ishlab chiqarish ulushi va foydasini hisobga olish kerak. Bu kerakli narsani shunday tushuntirish mumkin, oldin ko'rsatilib o'tilgandek, texnologik sharoit (qonsetratsiya, daraja, bir-biri bilan reaksiya kiruvchi oqsillarning nisbati va boshqalar) bunday ko'rsatkichlarga o'zgarishlar pog'onasi tanlov reaktorning ishlab chiqarish ulushi shuning bilan birga maxsulotning bahosi ko'rsatkichiga har xil ta'sir qilishi mumkin.

Biokimyoviy reaktorlar ishining samaradorligini baholash.

Har qanday biotexnologik jarayonda biokimyoviy reaktor asosiy apparat hisoblanadi, shuning uchun uning shu ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi bilan aniqlanadi. Samaradorlik ishini baholash uchun, bioreaktorning har qanday qonstruksiyasining shunday xarakteristikasi ishlatiladi, maxsulot olish uchun energetik xarajatlarning ulushidir. unday ko'rsatkichda apparatni ekspluatatsiya qilishda ko'p sharoitga bog'liq, ulardan biri bioreaktorlarning konstruktiv turi bilan aniqlanadi va uning ishlash tartibi, boshqa texnologik va biokimyoviy sharoitlari, shuning bilan birga xizmat qilishning texnik o'lchamidir.

Bioreaktorni samaradorligini baholash uchun birlamchi ko'rsatkich qilib uning qaysi ishlab chiqarishda qo'llanilishi tanlanadi. Hidrodinamik va apparat almashtirish xarakteristikasining bog'liqligi olinadi. YUqorida keltirilgan xarakteristikalari, xamda texnik issiqlik, bioreaktorning ish tartibi va konstruksiyasiga qaram bo'ladi. Taqqoslash asosida apparatlarning turini eng samaradorligini eng katta tonnali maxsulotni biosintez qilganda aniqlanadi, shulardan biri ozuqaviy oqsil olishdir.

Darhaqiqat, biokimyoviy reaktorlar tipini tanlash va taqqoslash qiyin texnik vazifa hisoblanadi. Ba'zi bir vazifalarni bajarishda texnologik va ekologik talablarni qo'yish va har tomonlama analiz qilish zarur. Bioreaktorlarning effektiv ishlashini baholash uchun eng keng tarqalgan ko'rsatkichlaridan mahsulot bo'yicha solishtirma unumdorlik va mahsulot olish uchun sarflangan solishtirma energiya hisoblanadi. Bu apparatlarni ekspluatatsiyalash ko'rsatkichlari ko'pgina talablardan kelib chiqadi. Masalan, apparatning konstruktiv xarakteristikasi biorektorlar tipi, jarayon kechishining texnologik va biokimyoviy talablari va boshqalar.

Bioreaktorlarning asosiy xarakteristikalaridan biri uning solishtirma unumdorligi hisoblanadi. U vaqt birligida reaksion hajm birligidan olinayotgan asosiy mahsulot miqdoriga teng. Solishtirma ishlab chiqarish unumdorligi jarayonning kinetik biokimyosi va reaktorlar harakatlanish prinsipi va jarayon organizatsiyasi uchun turlicha ko'rinishga ega.

Taqqoslash natijasida uzluksiz va davriy ishlaydigan bioreaktorlarda bir xil solishtirma unumdorlikka ega bo'lishi uchun har xil vaqt kerak bo'ladi.

9-MA'RUZA

2. MAVZU: FLOTATION APPARATLAR

R E J A:

3. Asosiy tushunchalar. Suspenziyalarning flotatsion konsentrlanish mexanizmi.
4. Barbotajli flotatorlar.
3. Naporli flotatorlar.
4. Elektroflotatorlar.

Tovar biomassa mikrobiologik ishlab chiqarishlarning tayyor mahsuloti sifatida namlik tarkibi 10% dan yuqori bo'lmagan quruq holda olinadi. Fermentyordan chiqadigan suspenziya, masalan, achitqi ishlab chiqarishning suspenziyasi tarkibida biomassa konsentratsiyasi, odatda, 40 kg/m^3 dan oshmaydi. Agar bu biomassa tarkibida 75% gacha hujayra ichi namligi bo'lishi inobatga olinsa, 1 kg tovar mahsulotni olish jarayonida 98,9 kg namlik yo'qotilishi kerak bo'ladi.

Namlikning hammasi biomassani olish texnologiyasida turli usullar yordamida yo'qotilib, ularni ikkita asosiysiga ajratish mumkin: gidromexanik va issiqlik-fizikaviy. Ikkinchisiga turli tipdagi bug'latish apparatlari va quritgichlarda suspenziyalarning quritilishi kiradi. Gidromexanik suvsizlantirish ikkita operatoridan iborat: suspenziyani flotatsion boyitish va ularni likopchali separatorlarda konsentratsiyalash.

1. Mikrobiologik sintez jarayonida suspenziyada fermentatsiya bosqichida SAM (sirt aktiv moddalar) lignin, guminli moddalar va hujayralar metabolizmining murakkab tarkibli mahsulotlarining eruvchan fraksiyalari ko'rinishida hosil bo'ladi.

Flotatsiya jarayoni bir nechta bosqichda amalga oshadi: suyuqlikda qalqib chiqadigan gaz pufagining sirtiga hujayralarning mahkamlanishi, ularning pufak bilan birga strukturlangan ko'pikning yuqori qatlamiga chiqarilishi hamda ko'pik va flotatorning filtrlanib bo'lgan mikroorganizmlar bilan birga chiqarib tashlanishi.

Flotatsiya jarayoniga ta'sir etuvchi omillar:

1. Hajmiy
2. Adgeziv
3. Planktonlik
4. Ozuqa muhiti kimyoviy moddalarining qovushqoqligi
5. Ozuqa moddalarining kislotalilik xususiyati
6. Ozuqa moddalarining tuzlar saqlashi

Mikroorganizmlarning gaz pufagi sirtida sorbsiyalanish xususiyati ko'pgina omillar bilan belgilanadi. Hujayralarning flotatsionirlashga layoqati ularning sirt qismidagi holatiga, polisaxaridlarning borligiga va tarkibidagi bog'langan suvga bog'liq. Silliqli qobiqli alohida hujayralardan ko'ra shoxlangan **konglomerat**lar yaxshiroq flotatsiyalanadi.

Flotatsiyalanadigan achitqilar muhit bilan yuvilganda o'zining pishiq suvli qobig'ini yo'qotadi va **meofob** qattiq tanalar singari gaz pufakchalari bilan o'zaro ta'sirlashadi. Hujayra qobig'ining sirtida to'planib, unga meofob xususiyatlarni beruvchi modda sifatida azot tutuvchi polisaxarid-xitin hisoblanadi.

Kultural muhitning kislotaligi ham flotatsiya jarayoniga ta'sir qiladi. Eng yaxshi flotatsiyalanish $rN = 4,5$ da kuzatiladi.

SHuningdek, flotatsiya jarayoni, asosan, (boshqa ijobiy omillar mavjud bo'lganda) gaz pufaklari sirtining yuzasiga ham bog'liq bo'ladi. Isbot tariqasida hujayralarning gaz pufagi sirtida joylashish sxemasini ko'rib chiqamiz.

Achitqi hujayralarining shoxi shartli ravishda diametri d_{huj} va uzunligi l_{huj} bo'lgan silindr hajmiga mos tushadi, deb faraz qilamiz. Ushbu shoxning hujayra massasi

$$m_{xuj} = \pi d_{xuj}^2 \cdot l_{xuj} (1 - \varepsilon_1) \rho_{xuj} / 4 ,$$

bunda,

ε_1 — shartli silindr ichida suyuqlikning ulushi (shoxning alohidalanganligi).

1 m^3 suspenziyadagi hujayra shoxlarining massasi $m = x(1-\varphi)$, ularning soni esa

$$n = m / m_{xy\omega c} = 4x(1-\varphi) / [\pi d_{xy\omega c}^2 \cdot l_{xy\omega c} (1-\varepsilon_1) \rho_{xy\omega c}] \quad (1)$$

x — suspenziya ichida biomassa konsentratsiyasi, kg/m^3 ;

φ - flotatsiyaning gaz tarkibi.

Berilgan sondagi shoxlarning gaz pufaklari sirtida mahkamlanishining shartini $4\pi d_{xy\omega c}^2 / 4 \leq a \varepsilon_2$ ko'rinishda ifodalash mumkin,

bunda,

a — pufaklar sirtining nisbiy maydoni;

ε_2 - hujayralar bilan qoplangan yuza ulushi.

Ushbu shart, 1-formula inobatga olinsa, quyidagi ifodalanishiga olib keladi:

$$(2) \quad x(1-\varphi) / [l_{xy\omega c} (1-\varepsilon_1) \rho_{xy\omega c}] \leq a \varepsilon_2 \quad \text{va bu suspenziyadagi biomassaning } X$$

konsentratsiyasida gaz pufaklarining sirtida hamma hujayralar mahkamlana olishi uchun sirtning nisbiy maydoni qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatadi.

Flotator ishining effektivligi flotatsiya koeffitsienti orqali baholanadi:

$$K_\phi = x_\kappa / x_n,$$

bunda,

x_0 — flotatsiyalangan ko'pikdan ajratib olingan suspenziyadagi biomassa tarkibi;

x_b — boshlang'ich suspenziyada biomassa konsentratsiyasi.

Flotatsiya jarayonining moddiy balansidan ko'rinishida, K_f kattaligi faqat boshlang'ich φ_δ va oxirgi φ_0 ko'pikning gaz tarkibiga bog'liq bo'ladi.

Haqiqatdan ham, flotatsiya jarayonining boshi va oxirida ko'pikni hosil qiluvchi gaz pufaklari sirtida hamma hujayralar joylashib olsa, ularning umumiy massasi

$$m = V_{\omega c} \cdot x_\delta = V_{\omega c} \cdot x_0, \quad (3)$$

bunda,

$V_{\omega c}, V_{\omega c}$ - flotatsiyadan jarayonidan oldin va keyin suspenziyaning ko'pikdagi hajmlari.

Ko'piklardagi gaz tarkibi mos ravishda quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} \varphi_\delta &= V_\varepsilon / (V_\varepsilon + V_{\omega c}) \\ \varphi_0 &= V_\varepsilon / (V_\varepsilon + V_{\omega c}) \end{aligned} \quad (4)$$


Flotatsiya jarayonida gaz ko'pikdan ajralmaydi va ko'pikda hujayralarning butun massasi qoladi, deb qabul qilinsa, ya'ni $m / V_\varepsilon = \text{const}$ bo'lsa, unda (3) va (4) dan quyidagi hosil bo'ladi:

$$K_\phi = x_0 / x_\delta = \varphi_0 (1-\varphi_\delta) / [\varphi_\delta (1-\varphi_0)] \quad (5)$$

Qattiq fazaning gaz-suyuqlik sistemasi bilan ta'sirlanishining moddiy balanslariga asoslangan (2) va (5) tenglamalar flotatsiya jarayonining statikasini belgilaydi.

Barbotajli flotatorlarning konstruksiyasini asosan, ularga fermentyordan kelib tushadigan gaz-suyuqlik aralashmasining strukturasi belgilaydi. Agar bu aralashma etarlicha rivojlangan nisbiy yuza maydoni α ga ega bo'lsa, flotatorda havoning qo'shimcha kiritilishi hisobiga rivojlangan nisbiy yuzaga ega gaz-suyuqlik sistemasi hosil bo'ladigan barbotajli zonasi bo'ladi. Gaz-suyuqlik aralashmasining qatlamlarga ajralishi sodir bo'ladigan flotatorning ikkinchi zonasi ko'pikka minimal mexanik ta'sir

bo'ladigan sharoitlarda ishlashi kerak. Aks holda, gaz pufaklarining yorilishida ulardan ajrab chiqqan hujayralar rangi ochlashtirilgan suyuqlikka tushadi.



1-rasm. Flotator

Ushbu flotator tub qismi yassi bo'lgan silindrsimon idish (5) ko'rinishda bo'lib, uning ichiga konussimon uzukli lotokka (2) ega stakan (4) o'rnatilgan bo'ladi. Idish (5) va stakan (4) orasidagi uzuksimon bo'shliq radial to'siqlar orqali beshta seksiyaga ajratilgan bo'ladi. I va V seksiyalar orasidagi to'siq (12) flotator tubigacha etib boradi,

boshqa seksiyalar orasidagi to'siqlar (3) esa tub qismigacha etib bormaydi. Har bir kichik seksiyaning pastki qismida barbotaterlar (11) o'rnatilgan bo'lib, ular havo etkazish uchun xizmat qiluvchi kollektorga (10) ulangan bo'ladi. Markaziy stakan (4) ning yuqorigi qismiga mexanik ko'pik o'chiruvchi (1) joylashtiriladi. Fermentyordan chiqayotgan gaz-suyuqlik aralashmasi flotatorga patrubok (8) orqali kiritiladi. I seksiyaning uzuksimon bo'shlig'i bo'ylab harakatlanagan sari aralashmaning qatlamlarga ajralishi kuzatiladi. Brajka II va V seksiyalar orqali ketma-ket oqib o'tadi va u erda barbatyorlar orqali kiritilgan havo ta'sirida qo'shimcha ravishda ko'piklanadi. Rangi ochlashtirilgan brajka flotatordan shtutser (6) orqali chiqariladi.

Achitqi bilan boyitilgan ko'pik konussimon lotokka (2) quyiladi va undan markaziy stakanga (4) oqib tushadi. Bu erda ko'pik mexanik ko'pik o'chiruvchi (1) bilan buziladi, bunga bachokdan (9) uzatiladigan kimyoviy ko'pik o'chiruvchi yordam beradi. So'ng ko'pik shtutser (7) orqali chiqarib yuboriladi.

Bunday flotatorning asosiy kamchiligi, gazning biomassani tugatish maqsadida oxirgi seksiyalarga yuborilishida ularda hosil bo'ladigan ko'pik markaziy stakanga quyushtirilgan suspenziyani suyultirib yuboradigan qo'shimcha maqdordagi suyuqlikni chiqaradi.

Agar fermentatordan chiqayotgan gaz-suyuqlik aralashmasi gaz pufaklarining etarlicha rivojlangan yuzasiga ega bo'lsa, u turbulentlikning tashqi manbalari tomonidan hech qanday ta'sirga uchramasdan flotator ichida harakatlanishi kerak. Ushbu shartga to'g'riburchak ostidagi kesimli gorizontal kanal (quti) ko'rinishida yasalgan flotator eng mos tushadi.

1. Suyuqliklar aeratsiyasining ehtimoldagi usullarini tahlil qilib, V.I.Klassen suyuqlikdan gaz ajralganda kichik dispersli zarralarning flotatsiya jarayonini yaxshilash mumkinligini nazariy jihatdan asoslab berdi, negaki bu holda pufakchalar bevosita zarralarning sirtida hosil bo'ladi. Genri qonuniga binoan, bunga suyuqlik bosimi pasayganda undagi gaz erishining kamayishi orqali erishiladi. Bosim kamayishining shartlariga binoan vakuumli va naporli flotatsiya ajratiladi.


Birinchi holda atmosfera bosimida gaz bilan to'yingan suspenziyalı idishda gaz ajralishini ta'minlovchi vakuum hosil qilinadi. Vakuumli flotatsiyaning boshqa usullarga nisbatan afzalligi shundan iboratki, bunda pufakli gazning hosil bo'lishi, ularning zarrachalar bilan yopishishi va pufakcha-zarracha agregatlarining qalqib chiqishi tinch muhitda sodir bo'ladi, agregatlar buzilishining ehtimolligi minimal darajagacha etkaziladi hamda suyuqlikning havo bilan to'yinishiga sarflanadigan energiya kam miqdorda talab qilinadi.

Vakuimli flotatsiya jarayonining kamchiliklariga suyuqlikning gaz pufaklari bilan past va kichik bosim o'zgarishi bilan chegaralangan darajadagi to'yinishini kiritish mumkin. Bu esa uni tortilgan zarrachalarning konsentratsiyasi $0,25-0,3 \text{ kg/m}^3$ bo'lgan suspenziyalarni quyushtirishda qo'llashga imkon bermaydi.

Naporli flotatsiya jarayonining negizi shundan iboratki, ishlanayotgan suspenziyada o'ta to'yingan gaz eritmasi oldindan hosil qilinadi, keyin esa u suyuqlikdan juda kichik pufakchalar ko'rinishida ajralib chiqadi.

Suspenziyaning havo bilan to'yinishi flotatorga olib boradigan so'ruvchi yoki uzatuvchi quvurlarda truboprovodlarda, nasos yordamida hosil qilinadigan yuqori bosim ostida amalga oshiriladi. Atmosfera bosimida ishlaydigan flotatsion apparatda gazning eruvchanligi kamayadi va butun hajm bo'yicha mayda dispers pufakchalar bir ma'yorda ajrala boshlab, ular hujayralar ustiga mahkamlanadi va ularni flotatsiyalaydi. Ushbu usul orqali tortilgan moddalar konsentratsiyasi $4-5 \text{ kg/m}^3$ va undan ortiq bo'lgan suspenziyalarni ajratish mumkin. Naporli flotatsiya oddiy usullar yordamida oldindan flotatsiyalangan bijg'itishdan oldingi bosqichda qo'llaniladi.

Qurilma sxemasi 2-rasmda berilgan.



2-rasm. Naporli flotatori o'rnatish sxemasi.

Rezervuar – yig'gich (1) dan quvur (2) orqali suspenziya nasos (3) bilan tortib olinadi, hamda naporli bak (4) va bosim regulyatori (5) orqali flotatsion kameraning (6) qabul qilish bo'limiga o'tkaziladi. So'ruvchi nasosning quvurida havoning so'rilishi uchun patrubok joylashgan. Nasos orqali naporli rezervuargacha tushgan havo yuqori bosim ostida suyuqlikda eriydi. Naporli bak hajmi to'yinishning kerak bo'lgan davomiyligiga (30 sek. dan 300 sek. gacha) mo'ljallanadi.

Nasos $0,15$ dan $0,4 \text{ MPa}$ va undan yuqori bo'lgan ortiqcha bosimni hosil qiladi. Bunday bosim va $0,03$ dan $0,05 \text{ m}^3$ gacha havo eriydi. Ushbu miqdor bosimning keskin kamayishidan keyin eritmada ajralgan mikropufakchalar hisobiga flotatsion kameraning qabul qilish qismida havo-suvli «emulsiya» hosil bo'lishi uchun etarli hisoblanadi. Pufakchalar hujayralarga yopishib, ularni ko'pikli qatlamga olib chiqadi. Flotatsion kameraning yuzasida qiruvchi transporter (7) yordamida yig'ib olingan ko'pik olib ketuvchi lotokka haydaladi. Rangi ochlashtirilgan brajka kameraning pastki qismidan olib tashlanadi.

Agar nasos orqali o'tayotgan havo hajmi haydalayotgan suyuqlik hajmidan $2-3\%$ ga katta bo'lsa, bu holat uning ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda havo suyuqlikka naporli truboprovod yoki naporli truboprovodni so'ruvchi truboprovod bilan bog'lovchi to'siq ustida o'rnatilgan havoli ejektor orqali kiritiladi.

2. Tortilgan zarrachalarni suyuqlikdan elektrolizda ajratib chiqadigan gaz pufaklari yordamida ajratib olish jarayoni elektroflotatsiya deyiladi. Boshqa flotatsiya turlariga nisbatan elektroflotatsiya uning afzalliklari bo'lib hisoblangan quyidagi prinsipial o'ziga xosliklar va farqlanuvchi belgilarga ega. Elektrolizda o'ta yupqa dispergirlangan gazlar ajraladi. Agar mexanik tipdagi flotatorlarda hosil bo'ladigan gaz pufaklarining o'rtacha diametri $0,8-0,9 \text{ mm}$, pnevmatik flotatorlarda o'rtacha 2 mm , vakuumli va naporli flotatsiyada $0,1-0,5 \text{ mm}$ tashkil etsa, elektroflotatorlarda kattaligi 100 mkm dan kichik pufakchalar hosil bo'ladi. Bundan tashqari,

elektrolizli gazlarning pufakchalari kattaligi bo'yicha bir ma'yorda bo'ladi va elektrodlardan ajralganidan so'ng suyuqlikda bo'lgan vaqti davomida doimiy diametrlarini saqlab qoladi.

Oqim zichligini o'zgartirib, flotatsion muhitda gaz pufaklarining juda yuqori konsentratsiyasini hosil qilish, mumkin, bu esa yupqa va o'ta yupqa zarrachalarning flotatsiyasiga yordam beradi.

Elektroliz toki parametrlarini o'zgartirish, elektrodlar yuzasining mos bo'lgan geometriyasini tanlash va ma'lum kattalikdagi rN hosil qilish pufakchalar dispersligini asta-sekinlik bilan, keng diapazonda o'zgartirishga imkon beradi. Elektrodlar sifatida ma'lum qalinlikdagi simdan yasalgan setkani ishlatib, elektrolizli gazlarning belgilangan kattalikdagi pufakchalarini hosil qilishi mumkin.

Elektrolitik gazlarning pufakchalar bilan birga aralashmada ishlatilganda, ular yirikroq zarrachalarning flotatsiya jarayoni aktivatorlari bo'lib xizmat qilishi mumkin. Zarrachalarning yuzasida elektrolitik gazlar mayda pufakchalarining bor bo'lishi ularga havoning yirikroq pufakchalari yopishishini osonlashtiradi.

10-MA'RUZA

Avtomatlashtirilgan loyixalash tizimining biotexnologik ishlab chiqarish va fermentyorlarni optimal loyihalash vazifalari

Reja.

2. Loyixalash bosqichlari va uning asosiy vazifalar.
3. Fermentyorlarning algoritmik hisobi va ularni optimal loyihalash.

Barcha turdagi mahsulot ishlab chiqarish korxonalarini loyihalash mikrobiologik jarayonlar spetsifikligini hisobga olgan texnologik sxemadan boshlanadi. Biotexnologik ishlab chiqarish mikroblarning o'sish va rivojlanish jarayonlariga asoslangan. Biologik mahsulotlar ko'pchilik qismini labil birikmalar hosil qiladi. Ular jarayonning ketishini qiyinlashtiradi.

Texnologiyani ishlab chiqish laboratoriya izlanishlaridan boshlanadi. Avvalambor, xom ashyoning material balansi, elektroenergiya sarfi, mahsulot chiqish optimal texnologik sxemasi ishlab chiqiladi. Har bir texnologik ob'ekt loyihalashning yuqori ierarxiya bosqichi hisoblanadi. Loyihalash kompleksini yaratish loyihalash muhandisligining mustaqil yo'nalishi bo'lib, texnologik loyihani muhandis texnolog, kompleks loyiha yoki funksional loyihani esa muhandis texnolog loyihachi ishlab chiqadi.

Sintez jarayoni strukturasi qo'yilgan vazifalarning qiyinligiga ko'ra uni hisoblash aniq yo'l bilan hal qilinadi. Qiyinlik darajasiga ko'ra vazifa besh usul bilan echiladi.

Birinchi darajada sintez o'tkazish zarur emas, chunki ob'ektning strukturasi texnik vazifalarda aniqlangan. Bunday hollarda paametric optimizatsiya vazifalari echiladi.

Ikkinchi daraja ko'pgina variantlardan tanlab olingan bir ob'ekt strukturasi olinib, unda ob'ektning barcha elementlari ma'lumdir. Bunday masalalarni kchishda ob'ektni loyihalash struktura kataloglaridan foydalaniladi.

Uchinchi daraja qiyinlik daraja vazifalarida oxirgi ko'p ma'lum variantlardan birgina variant tahmin qilinadi. Bunday vazifalarni algoritmlar yordamida echiladi.

To'rtinchi daraja vazifalari amaliy jihatdan ma'lum variantlardan birgina variant tanlab olinadi.

Beshinchi daraja vazifalarida algoritmlashga bo'ysunmaydi va formal jihatdan ularni rejalashtirish mumkin emas, biroq bunday tipdagi vazifalarni echish va tahlil qilib berish muhimdir. So'ngra ularni o'rganishga kirishish va optimal yo'l topish zarur.

Fermentyorlarning konstruktiv va texnologik o'ziga xosligilarini ko'rib chiqamiz, fermentatsiya jarayoni aynan shu sistemaga kiradi, ammo bir qarashda uni optimal loyihadini hisoblash bir butun strategiyadek ishlab chiqishga yo'l qo'yilmaydi. Darhaqiqat, berilgan sistemaga turli xildagi fermentyorlar xarakterlidir, ular faqatgina material organizatsiya prinsiplari, alohida turdagi

apparatlarda energiya oqimi va apparatura sxemalari bilan farqlanadi. ko‘rilayotgan holatda sistematik yo‘l bilan optimallashtirishning ierarxik sxemasi va kriteriyalarini (mezon) tanlash mumkin. Fermentatsiya bosqichida avvaldan ko‘rilgan texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda kriteriyaning eng pastki darajasi additiv hisobga olinadi.

$$F_{\Sigma} = \sum$$

bunda,

F_{Σ} - global kriteriya,

F_i - hususiy kriteriya minimizatsiyasi.

Hususiy kriteriya minimizatsiyasi

$$K_i(y_i, u_i, z_i) \geq 0$$

bunda,

y_i, u_i, z_i - i blok optimizatsiyasiga kirish va chiqish parametrlari.

Optimallashtirishning global kriteriyasi quyidagicha aniqlanadi.

$$\Phi_{\Sigma} = \min_{u_1, u_2, u_3} [\Phi_1(y_1, u_1, z_1) + \Phi_2(y_2, u_2, z_2) + \Phi_3(y_3, u_3, z_3)] \quad (4.40)$$

Fermentyor uchun tashkil etilgan kriteriyalarni ko‘rib chiqamiz.

F_i – kattalik quyidagi texnologik jarayon uchun qo‘llanilgan mikroorganizmlarning oziqlanishiga ketgan komponentlar harajatlari summasi bilan aniqlanadi. Har bir ozuqa komponenti stixiometrik koeffitsent orqali aniqlanadi

$$\alpha^j = \alpha^j + \frac{b^j}{\mu},$$

bunda,

μ - hujayra o‘sishi solishtirma tezligi,

α^j, b^j – hujayradagi ozuqa elementlarining konstruktiv va energetik almashinish sarfiga ta’sir etuvchi koeffitsent.

Fermentyordagi uzluksiz jarayon uchun $\mu = D = 1/\tau$.

bunda,

F_i kriteriyasini quyidagicha yozishimiz mumkin.

$$\Phi_1 = \sum_{j=1}^m \alpha^j l_j,$$

bunda,

l_j – j ozuqa komponentining tan narxi,

m - ozuqa komponentlar soni.

F_2 kriteriyasi quyidagi ko‘rinishga ega.

$$\Phi_2 = \frac{(N_r + N_m)}{(VX/E)} \vartheta,$$

bunda,

E – 1kVt soat elektroenergiyaning tan narxi.

O'zgarishni boshqarish

$$u_2 = \begin{vmatrix} P \\ Q_r \\ Q_{\kappa} \end{vmatrix}$$

Fermentyorning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari kapital sarf, geometrik xarakteristikasiga bog'liqlik , apparat tipi , uning massa va materiali bilan aniqlanadi, shundan kelib chiqqan holda hususiy kriteriya F_3 quyidagicha bo'ladi.

$$\Phi_3 = E \frac{K}{VX/\tau},$$

bunda ,

E – okkupaymost ning normativ koeffitsenti,

$E \approx 0,15$, K - kapital sarf.


O'zgarishni boshqarish.

$$u_3 = \begin{vmatrix} H \\ D \\ \tau \end{vmatrix}$$

YUqoridagi hususiy kriteriyalar umumiy kriteriyaning texnik iqtisodiy tarkibini etarlicha ko'rsatib beradi va u quyidagi ko'rinishga egadir.

$$\Phi_z = \sum_{j=1}^m \alpha^j l_j + \frac{N_r + N_{\kappa}}{VX/\tau} + E \frac{K}{VX/\tau} \rightarrow \min$$

CHeklov sifatida quyidagi talablar ko'rib chiqiladi. Texnologik- $S \leq S_{don}$, konstruktiv- $H \leq H_{don}$, $D_{ap} \leq D_{don}$ va boshqalar.shunday qilib, fermentyorning optimal loyihalash hisobi quyidagi sxemadan ko'rish mumkin.



1-14 –optimal xisoblash algoritm bloki, 1-berilgan ma'lumotlar bloki, (kinetik, stexiometrik, fizik-kimyoviy), 2-ishlab chiqarish topshiriq bloki, 3-model parametri bo'yicha yaqinlashish bloki formirovkasi, 4-jarayonning matematik modelini hisoblash blok sistemasi, 5-massa almashinish parametrlarini hisoblash bloki, 7- konstruktiv parametrlarni hisoblash bloki, 8-gidrodinamik parametrlarni hisoblash bloki, 9- energetik xarakteristikasini hisoblash bloki, 10,11,12- optimallashtirishning hususiy kriteriyalarini hisoblash bloki, 13- global kriteriyani hisoblash bloki, 14- cheklangan va **sopostavleniya** parametrlarni hisoblash bloki, 15-hisoblash variantlari bloki, 16- fermentyor ishlashining optimal parametrlari hulosalash bloki.

Fermentyor modeliga quyidagilar kiradi.

- kinetik model,
- apparatdagi oqimning gidrodinamik struktura modeli,
- fermentatsion gazli muhitga fazadan kislorod massa uzatish modeli,
- fermentyorning energetik , konstruktivparametrlarini bog'liqligini hisoblash modeli.

Kulturalash jarayonini nazorat qilish va boshqarish.


Kulturlash jarayonini boshqarish texnologiyasining asosi, avvalambor, o'sayotgan kultura uchun qulay sharoit yaratib berishdir. Buning uchun bu shart-sharoitlar qanday ekanligini bilishimiz zarur.

Asosiy boshqarish ta'siri aeratsiya rejimi va aralashtirish, issiqlik tashuvchi, kislotali muhit kattaligini rostdash ko'pik darajasini ushlab turish, kirayotgan komponentlar me'yorining tezligi

Kulturaning fiziologik holati jarayonning turli kinetik parametrlariga qarab baholanadi: o'sish tezligi, kislorod va turli xil substratlarning iste'moli (yutilishi), karbonat angidrid gazning ajralishi va metabolismning boshqa mahsulotlari, bijg'ishi va ishqoriy muhitga o'tish tezligi, issiqlik ajratish va b.

Suyuq komponentlarni me'yorlash

Asseptik talablardan ishlab chiqarish korxonalarida membranali va kristalli eng yaxshi dozatorlovchi nasoslar hisoblanadi. Dozatorlashni nasoslarsiz dozator idishlarda ham amalga oshirish mumkin.



1.24 Dozirovka yig'gichli fermentyor sistemasi

1-fermentyor, 2- dozalanayotgan aralashma yig'iladigan idish, 3-dozirovka bochkasi, 4- doza quyiladigan klapan, 5- dozani chiqaruvchi klapan, 6-darjalovchi datchik, 7-boshqaruv qurilmasi.

Liniyadagi bosim fermentyordagi bosim 50-100 kPa yuqori bo'lishi kerak. Dozirovkalash tezligi vaqt, klapan ochilish chastotasi va shu bilan birgalikda ortiqcha bosim orqali aniqlanadi.

Vodorod ioni konsentratsiyasi rN ni o'lchash hech bir qiyinchiliklarsiz taqqoslovchi shisha elektrodalarda amalga oshiriladi. Ular bug'li sterilizatsiyaga chidamli. Ba'zida tashqi sirkulyasion sitemadan foydalaniladi.


Aralash gazlar-eng ko'p tarqalgan amperimetrik datchiklar (1.25-rasm) bo'lib bunda erigan kislorod konsentratsiyasi va kuchlanish orasidagi chiziqli bog'liqlik kuzatiladi. Chunki membrana orqali selektiv kirayotgan kislorod elektrodda elektrokimyoviy reaksiya sodir qiladi. Datchiklar bug' bilan 20 marttagacha sterillashga chidamli, bunda u o'z sezgirligini yo'qotmaydi. fermentatsiya qilishdan oldin uni davriy darajalash zarur.

Harorat- biosintez jarayonida harorat ma'lum bir dastur bo'yicha o'zgarishi mumkin, bunda maksimal mahsulot chiqishini ta'minlash zarur. Haroratni simboli termometr, termobug' yoki qarshilik metal termometrlari bilan nazorat qilish mumkin.

CHiqayotgan gaz va SO₂ konsentratsiyasi. Bu parametрни gazning harorat o'tkazuvchanligi bilan o'lchash mumkin. Ba'zida esa infra qizil analizatorlardan ham foydalaniladi.

Bosim. Bu parametрни o'lchash uchun oddiy steril talablardan foydalaniladi. Fermentyordagi bosim oddiy teskari bosim klapani bilan rostlanadi.

Avariya holati yuz bersa, fermentyorda bosimning tushishi boshlansa, apparatni begona mikrofloralardan himoya qilib uni germetiklash zarur. Quydagi rasmda vazifani sxemasi keltirilga



1.26-rasm. Fermentyordagi havo bosimini ushlab turish sxemasi

1- truboprovoddagi manometr, 2-gaz kiruvchi liniyadagi zaslonka, 3- gaz chiquvchi liniyadagi zaslonka, 4- fermentyordagi manometr.

Bosim tushishi bilan tovushli signalizatsiya yoqiladi, bir vaqtning o'zida avtomatik holda apparatning germetiklikni ta'minlovchi ikkala to'siq yopiladi.

EHM-fermentyor komplekslari.

EHM-fermentyor komplekslarida asosiy elementlar quydagilar hisoblanadi:

-o'lchanayotgan va bajarilayotgan uskuna.

-datchik naborli fermentyor.

-EHM o'zining periferiyli uskunalari bilan;

1. Texnologiyani optimizatsiyalash yo'li bilan ishlab chiqarish ko'lami sarf-xarajatlarni kamaytirish;

2. Ishlab chiqarish funksional ishonchligini kengaytirish;

3. Ishlab chiqarishni mobillashtirish;

4. Kechayotgan jarayon haqida axborotlar operativ **dostubga** ega bo'lishi;

5. Qiyin operatsiyalarni hajmini kamaytirish;

Foydalanilgan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. Bortnikov N.I., Bosenko A.M. Mashiny i apparaty mikrobiologicheskikh proizvodstv. - Minsk: Vysshaya shkola, 1982 - 288s.
2. Быков V.A., Manakov M.N., Panfilov V.I., Svitsov A.L., Tarasova N.V. Biotexnologiya v 8 kn./ kniga 5 Proizvodstvo belkovykh veshchestv. - M. Vyssh. Shkola, 1987.- 14 s.
3. Gaponov K.P. Protssesy i apparaty mikrobiologicheskikh proizvodstv, M.:Leg. i pish. prom-t, 1981.-240 s.
4. Kalunyans K.A. Golger L.I., Balashov V.E. Oborudovanie mikrobiologicheskikh proizvodstv. - M.: Agropromizdat, 1987. -398 s.
